

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar va geografiya
Fakulteti dekani:**

_____ dots. V.Azizov
“ _____ ” _____ 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”
kafedra mudiri
_____ dots. B.Baratov
“ _____ ” _____ 2012 yil**

TABIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi
bitiruvchisi**

Mavlonov Nosir Ma'murovich

**Geografiya ta'limida noan'anaviy darslar va
interfaol usullardan foydalanish
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

p.f.n.dots. M.Mo'minov

Namangan – 2012

MUNDARIJA:

KIRISH	3
1-BOB. TA'LIMNING XOZIRGI ZAMON NOANANAVIY VA INTRAKTIV USULLARINI NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Ilg'or pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribalar.....	7
1.2. Xozirgi zamon noan'anaviy ta'limi.....	18
1.3. Ta'limning interaktiv usullari	28
2-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA NOANANAVIY VA INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY ASOSLARI	47
2.1. Noan'anaviy dars mashg'ulotlari.....	47
2.2. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish.....	51
2.3. Geografiya darslarida interfaol metodlari asosida seminarlarni tashkil etish.....	58
2.4. Geografiya darslarida test texnologiyasi.....	68
XULOSA	90
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	92

Mavzuning dolzarbligi; Ma'lumki, har bir millat tarix va zamon voqealarining faol ishtirokchisiga aylanan ekan, uning jahon tsivilizatsiyasi yoki mamlakatdagi mavqei va obro' – e'tibori doimo shu millatning salohiyati- aqliy, ma'naviy potentsialiga bog'liq bo'lib qoladi. SHuning uchun ham, mamlakat kelajagi uning ta'lim tizimining rivojlanganligi darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan, "Barkamol avlod" Davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur 2010- yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan yoshlarning manfaati va huquqlarini himoya qilish sohasidagi yetilgan muammolarni o'z vaqtida hal etish, uzluksiz ta'lim tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real iqtisodiyotga va mamlakatning barcha hayot sohalarida ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan mutaxassislarga bo'ladigan talabni ta'minlash maqsadini ko'zda tutadi.

"Tayyorlanayotgan mutaxassislarga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor bergan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish", -degan edi Prezidentimiz "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida. Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish uchun pedagog kadrlarning imkoniyatlarini oshirishga katta talablar qo'yilyapti.

Interfaol ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. SHuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida izlanishi, ijodiy mehnati davomida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu o'rinda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. CHunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining maktabdagi asosiy ishidir. SHuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarni qiziqitirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli darajada oziqlantirmaydi. SHu sababli, darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida o'quvchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

O'qituvchining kasbiy fazilatlarini: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rgata olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilar.

SHogirdlik odobi bo'yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin», 1) avvalo: o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; 2) o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida hokisor bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; 4) ko'rish (nojoyiz) lozim bo'lmagan hamma

narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsa larga quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish; 7) ustoziga qarshi bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Ana shu kesimlarda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi dialektik munosabat to'laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:

1. Jismoniy va aqliy salomatlik.
2. Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
3. Kuchli va keng qamrovli poydevor bilim.
4. Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
5. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.
6. Mustaqil o'z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi; Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida darslarda noan'anaviy va interfaol usullardan keng foydalanishni rivojlantirishga bag'ishlangan qator xorijlik va mamlakatimizdagi olimlarning ilmiy ishlari mavjuddir. Rus olimlaridan I.Matrusov, A.ЛЫСЕВ, I.Dushina, L. Pancheshnikova, I.Suravegina va boshq.

O'zbek olimlaridan A.Soliev, X.Vaxobov, O.Muminov, P.Musaev, N.Nabixanov, X.Ubaydullaev, M.Abduraxmanov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi; Umumiy ta'lim maktablari geografiya o'qituvchilariga geografiya darslarida noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari kuyidagilardan iborat; - O'qitish jarayonida noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanish uslubini yaratish orqali ta'lim mazmuni boyitish,

- Ta'lim jarayonida o'quvchilarni intellektual salohiyatini interfaol usullardan foydalangan xolda ta'minlash,
- Ta'limda o'ziga xos ravishda interaktiv metodlarni har bir fan va o'quv soatlariga jalb etish,

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti;Geografiya darslarida noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanish ishning asosiy ob'ekti qilib o'rta umumta'lim maktablari olingan

Bitiruv malakaviy ishning predmeti sifatida quyidagi, Klaster, aqliy xujum, munozara, delfi noan'anaviy ta'lim usullari xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi; Geografiya o'qituvchilariga geografiya darslarida noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanish uslubini yaratish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati; Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan taklif va mulohozalardan yo'riqnoma, ko'rsatmalar ishlab chiqishda, darslik, o'quv qo'llanma materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilish tarkibi; Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismidan iborat.

1-BOB. TA'LIMNING XOZIRGI ZAMON NOANANAVIY VA INTRAKTIV USULLARINI NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ilg'or pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir.

Pedagogik ijodkorlik manbai - **bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba** - muammoli vaziyatlarga juda boydir. **Ilg'or pedagogik tajriba deganda**, biz pedagogning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, talabalarning ta'lim-tarbiyasiga yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ijodiy ishlaydigan pedagog faqat talabalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiya berish, **ilg'or ish tajribalarini o'rganish** bilangina cheklanib qolmasdan, taraqqiyotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita bilish, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

Pedagogik tajriba pedagogning faoliyatini samarali tashkil qilish, ta'lim oluvchilarni tayyorlashning har bir vaziyatida mahoratning yuqori darajasiga erishishda uzluksiz ravishda olib boriladi. Pedagogik mahorat o'z-o'zicha vujudga kelmaganidek, **tajriba** ham hech bir harakat, qiziqish va o'rganishsiz, sinovsiz, tavakkal qilishsiz yuzaga chiqmaydi. Pedagogik faoliyatning eng zaruriy va emotsiyalarga, hissiyotlarga boy bo'lishini hisobga olsak, juda og'ir muammolar, dars jarayonlaridagi kutilmagan holatlar, endi o'rganayotgan o'qituvchining faoliyati ham o'z fanining mohir ustasi bo'lgan o'qituvchiga **tajribasini** tinimsiz oshirib borishiga imkon yaratadi. **Tajribali pedagoglar** doimo o'zlarida nimanidir, qandaydir qobiliyatini namoyon qilayotgan yoki rivojlantirayotgan bo'ladilar.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar sistemasini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga nafaqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l-atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

O'zgal holatini tushuna olish o'qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilishi lozimdir. O'quvchilarning yurish-turishi, o'tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin.

O'zini namoyon qila olish - bu bir qiyin yoki narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko'nikma, odob–axloq, muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir. Bunday professional o'qituvchi bo'lish uchun pedagog madaniyat ko'rsatkichlariga erishishi lozim.

Madaniyat atamasi lotincha bo'lib, u tuproqni ishlash ma'nosini bergan bo'lsa, hozirgi vaqtda esa, umumiy holda inson madaniyatni, jamiyatni qayta qurish faoliyati va uning natijasidir, deb tushuniladi.

Moddiy va ruhiy madaniyat jamiyat hayoti tavsifining katta qismidan iborat. Ijodkor pedagogning o'zi esa yo'lni o'zlashtirib, mazkur jamiyatning o'ziga xos bo'lgan boyliklari, an'analari va madaniyatining usullari hamda ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. SHunday qilib, mukammal o'qituvchii umuminsoniy madaniyatning vakili va taqdim etuvchisidan iborat.

Fanda madaniyat mohiyatiga uch xil qarash tushuniladi: aksiologik, faoliyatli va shaxsiy.

Aksiologik qarashda pedagogika va tarbiyadagi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Faoliyatli qarash pedagogik metodlar va vositalar mohiyatini amalga oshirishni tadbiq etish imkonini beradi. Individual-shaxsiy rejada o'qituvchining pedagogik madaniyati uning kasbiy

faoliyatidagi tavsifining mohiyatidan iborat, deb tushuniladi. Bunday qarash o'qituvchini umuminsoniy madaniyat va pedagogik boyliklarni, u orqali tarbiya va ta'limning madaniy boyliklarini bir avloddan ikkinchi avlodga tashuvchi vakili sifatidagi shaxs, deb qarash imkonini beradi. Pedagogik madaniyatning umuminsoniy shakllari kabi, moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Pedagogik bilimlar, nazariyalar, kontseptsiyalar, insoniyat va buyuk allomalar tomonidan to'plangan **pedagogik tajriba** hamda kasbiy-etikaviy normalar-me'yorlarning barchasi pedagogik madaniyatning ma'naviy-ruhiy boyligini tashkil etadi. Pedagogik madaniyatning moddiy boyligi o'qitish va tarbiya vositalaridir.

O'qituvchining umumiy madaniyati uning ijtimoiy-ahamiyatli tavsiflarining kasbiy faoliyatda amalga oshgandagi yetukligini ifodalaydi. Madaniyat shaxsning rivojlanishi, uning ruhiy kuchlari va qobiliyatlarining amaliy faoliyatida amalga oshish darajasi va hokazo. Insonning madaniy rivojlanishi - bu uning bilimlari, ishonchlari, qobiliyatlari, hulqining muhit tomonidan rivojlanish jarayonidir.

O'qituvchining kasbiy madaniyati uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati-tizimli ta'limdan iborat.

O'qituvchining pedagogik madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasiga va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilar kiradi:

A) pedagogning intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, pedagogik tafakkurning rivojlanishi);

B) pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi;

V) asosiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviy xarakter va odob madaniyati;

G) o'zaro munosabat madaniyati;

D) so'zlashuv madaniyati;

E) tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar.

Pedagogik fikrlash madaniyati bo'lgan o'qituvchi tafakkuri –dunyo- qarashining uch bosqichini o'z ichiga oladi: birinchisi metodologik dunyo qarashdagi **pedagogik ishonchdir**. Metodologik tafakkur o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatiga to'g'ri qaray olishiga, gumanistik strategiyani ishlab chiqishiga imkon yaratadi. Pedagogik fikrlash madaniyatiga pedagogik tahlil va sintez qobiliyatining rivojlanishi, fikrlashdagi tanqidiy kurash, mustakillik, kenglik, epchillik, faollik, tezlik, kuzatuvchanlikning rivojlanishi, pedagogik xotira va boshqalar kiradi.

Pedagogik tafakkurning ikkinchi bosqichi - taktikaviy dunyoqarash bo'lib, u o'qituvchiga pedagogik fikrlash, pedagogik jarayonning moddiylashuviga imkon yaratadi.

Uchinchi bosqichi umumiy pedagogik konuniyatlarni, real pedagogik faoliyatning unikal hodisasi bo'lib hisoblangan bo'lim-bo'limlarga tadbiq qilishda namoyon bo'ladi. Bu **tezkor fikrlashdir**.

Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-ahlok bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. O'qituvchi, kasbiy muhitdan relok sin jarayonga, o'zining tutgan o'rnini yangilashga faol kirib borishi zarur. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, bu esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Ma'naviy madaniyat yetuk bilimlarning nazariy darajasi holatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu **kasbiy pedagogik etikadan** iborat.

Pedagogik aloqa qilish madaniyati suhbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning qiyin holatlarini ko'ra olish va odamlardagi ta'sir holatini to'g'ri taxlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo'lgan xohishlarda ko'rinadi.

Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. O'qituvchining nutqi kundankunga o'quvchilar uchun ibratli bo'lib borib, ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning grammatik to'g'riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi,

obrazlilik, nutq texnikasini egallaganligi o'qituvchining turli xil kasbiy masalalarni sifatli yechishiga imkon beradi. O'quvchilarning yangi materialni tushunib va o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi nutqining takomillashganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Bolalar pedagogning nutqiy ma'lumotlariga sezgir bo'ladilar. Biror bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinishi bolalarda kulguni chaqiradi.

Nutq insonning ongida paydo bo'lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko'chishidir. Nutq ta'sirli yoki ta'sirsiz, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Nutq orqali kishi holatini tushunish – kishilar o'z nutqlarida o'zlarida kechayotgan jarayonni namoyon qiladilar. SHu holatni tushunishdir.

Monoton nutq bolani zeriktiradi, noaniq intonatsiya esa yaxshi o'zaro yaqin suhbatning uyushtirilgandan baland ton bolalarda ishonchsizligini keltirib chiqaradi.

Tovush odamlarda tabiatan beriladi, ammo bu esa juda ham ko'p uchraydi. Hamda yaxshi tovush maxsus mashqlarsiz yillar o'tgan sari buziladi, o'zgaradi.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

A) pedagog va o'quvchilar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqotning natijaliligini;

B) faoliyat motivlarini, tushunchalarni to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'quvchi, bolalar tafakkuriga, his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak;

V) ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushuntirish va mustahkamlash, o'zlashtirib olish;

G) o'quvchilarning amaliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish;

O'qituvchi nutqining o'ziga xosligi - o'quvchilarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Kuzatuvchan o'qituvchi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga qanday ta'sir etishni hisobga olgan holda ish yuritadi.

O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar, quyidagilardan iborat funktsiyalar bilan belgilanadi. Asosiy funktsiyalardan biri bu bilimlarni to'liq uzatishni ta'minlab berish. Yangi bilim berishda o'qituvchi o'z nutqi orqali faqatgina yangi bilimlarni berib qolmasdan, balki his-tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak.

Pedagogning tashqi ko'rinish madaniyati, uning tashqi ko'rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va o'zini-o'zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik mahoratning maqsadi va vazifalari.

«Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1997 - 2011 yillardagi ilmiy yondoshuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individullikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

A) pedagogik mahorat; B) ***pedagogik ijod***; V) novatorlik; G) kasbiy bilimdonlik; D) faoliyat uslubi; Ye) innovatsion faoliyat; J) pedagogik texnologiyalar; 3) mahorat.

Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tasvirlash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish, boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega. Turli mualliflar asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni, deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi.

Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi. Bo'lg'usi pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

- sotsial o'z-o'zini belgilash - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

-sotsial faollik - ***odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish***;

-sotsial mas'uliyat - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlardir.

Pedagogik mahorat asoslariga kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, ***kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi*** kiradi. Mahoratning shakllanish bosqichlariga:

reproduktivlik, ijodiylik, novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

-loyihalash,

-konstruksiyalash,

-tashkilotchilik,

-muloqot,

-bilish va reflektivlik.

Pedagogik mahoratning o'rganish predmeti pedagogik mahorat, maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik bilimlarni amaliyotda mahorat bilan qo'llash malakasini tarbiyalashdan iborat. Mahoratga erishish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni mahoratli, ijodkor, tajribali pedagogni yetishtirishdir.

Pedagogik mahorat - bu fahm-farosat bilan ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish, tarbiyalanuvchini qalban his qilish va tarbiyalanuvchiga avaylab, ***ijodiy dalillik, ilmiy tahlil va istiqbolni hisobga olgan holda yondashishdir.***

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, pedagogik farosat, his etish, pedagogik malaka, ***ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish*** kabilar kiradi.

Har qanday vositani qo'llash turli xil omillarga bog'liq holda tanlanadi, bu tarbiyalanuvchini psixologik holati, bilim darajasi, tarbiya muhiti va boshqalar bilan bog'liq (masalan, rag'batlantirish). Demak, pedagog bu holda barcha omillarni hisobga olishi, tarbiyalanuvchi shaxsini yaxshi o'rganishi va rag'batlantirish usulini to'g'ri, o'z o'rnida qo'llay olishi uning ***pedagogik tajribasi mavjudligidan*** dalolat beradi.

Barcha pedagogik vositalarni qo'llashda jamoani daqiqa sayin o'zgarib boruvchi vaziyatini ham hisobga olish talab etiladi.

Asosiy pedagogik mahoratning talablari: bolalarga ishonch bilan qarash, talab va ishonchning birligini ta'minlash, hurmat qilish, insoniy munosabatda bo'lish hisoblanadi.

Pedagogik mahoratni egallashning yo'llari.

Pedagogik mahoratni egallashning asosiy ikki yo'li bor:

1. O'qituvchi yordamida pedagogik mahoratni oshirish (ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish).

2. Mustaqil ishlash (kasbiy tayyorgarlikni, bilimdonlikni oshirib borish). Metodik va mahoratga tegishli adabiyotlarni o'qish, pedagogik ko'nikmalarni hosil qilish. Bunda pedagog o'zida o'quvchilarga nisbatan muhabbat, o'quvchilar bilan muloqot qilish ehtiyojini tarbiyalashi kerak. Muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikni vujudga keltirish, o'quvchini tinglash va o'z fikrini to'g'ri ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Pedagogika sohasida inson omilini bosh vazifa qilib olish, har biri kishining o'z o'rnida vijdonan va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda ishlashga erishish ta'lim-tarbiyaning ***asosiy tajribasi*** sanaladi. Pedagogik faoliyatda muallimning ijodiy mehnatini rivojlantirmasdan bunga erishish mumkin emas. SHuning uchun pedagog jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyatini tushunishi, o'zi qilayotgan ishning ahamiyatini bilishi juda muhimdir. Hozirgi zamon o'qituvchisi bilimlarning keng ko'lamdagi zahirasiga, pedagogik mahoratiga va obro'ga ega bo'lishi kerak. Hozir hamma joyda faqat oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlash uchun sharoitlar yaratildi. Lekin, e'tirof etish kerak: o'qituvchi o'quv yurtida qanchalik yetuk ta'lim olgan bo'lmasin, baribir u doimo ***malakasini va tajribasini oshirish va umumlashtirishga*** muhtoj bo'ladi.

Pedagog o'z faoliyatini har qanday sharoitda ham hayotiy jarayonning asosiy shakllaridan biri sifatida anglashi muhim omildir. Bunday tushuncha uning ***shaxsiy sifatleri va kasb mahoratini rivojlanishi*** uchun katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchining o'ziga xos kasb xususiyatlarini aniqlangandan keyingina **malaka oshirishning mazmuni, shakllari va usullarini unga mos tarzda tashkil etish** mumkin.

Pedagogik mahorat fanining vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi: shuningdek pedagogik mahorat fani o'z taraqqiyoti davomida ta'lim — tarbiya sohasidagi **tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish**

istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning jamiyatimiz hayotidagi o'rnini oshiradi. Pedagogik texnika pedagogga o'quv faoliyatida ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Pedagog **umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib**, ta'lim - tarbiya jarayoniga tatbiq etishi lozim. SHu bilan birga milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, ham yuksaltirib borishi va ularni talabalar qalbiga singdirish zarur. Pedagog faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakteriga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. Pedagog faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik **ijodkorlarning** asosiy mohiyati faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jarayonidir. Pedagog faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa olishida ifodalanadi.

Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish talabaga u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarining mohiyatini anglatish jarayonida qo'llaniladigan pedagogning ish usullaridan biridir.

Har bir shaxsга ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va professionalligiga bog'liqdir. Bunda:

- o'quvchining ijobiy xatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talablarni aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
 - talab ochiq chehra, samimiy bir ohangda berilishi, iltimos, maslahat, yaxshi niyatga chorlashi;
 - talab o'quvchilarning yoshi, bilimi saviyasiga mos bo'lishi.
- o'quvchilarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalarga e'tibor berish lozim.

Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoalarni tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta'sirini nazariy va amaliy asoslari mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganilib, u ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi talaba-yoshlar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jiplashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, **ilg'or tajribalarga** suyanib, ularni tarbiyaviy jarayonida o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini shakllantirish **mahoratini o'zlashtirishdan** iborat. Ular:

- Har bir **o'quvchi** shaxsida o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarini jamoada jiplashtirish;
 - shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish; jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

O'rta umumiy ta'limi maktab o'quvchilar jamoalarini, tashkil qilishda pedagogdan turli tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. Pedagog jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik o'quvchilarni to'g'ri qo'ya bilish, shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

2. o'quvchilar jamoasidagi yetakchi kuch-tayanch o'zagini tanlash.
3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.
4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarining dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.

5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Har bir pedagog pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir o'qituvchining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi - tildir. Xalqimizda shunday naql bor "o'quvchi-shirin so'zning gadosi". SHunday ekan o'qituvchi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "SHirin so'z ko'ngillar uchun bamisoli asaldir."

SHuning uchun ham pedagog har on nutq madaniyatiga qattiq, e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. Yuksak tuyg'u madaniyatiga ega bo'lgan pedagog o'quvchilarning kayfiyati, noxushligini darrov fahmlaydi.

Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, o'quvchi shaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish pedagogning faoliyatiga putur yetkazadi. O'quvchi ahvolini tushunish unga hamdard bo'lishi, madad berish kerak. Pedagog o'zining pedagogik faoliyatida avvalo to'g'ri so'z bo'lishi, ishlarini adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baholovchi muxim mezondir.

Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: «Loqal bir harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganju xazina bilan ham uzib bo'lmaydi». Biz ulardan umrbod qarzdormiz.

1.2. Hozirgi zamon noan'anaviy ta'limi

O'nlab yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. SHu bois ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish;
- Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engilashtiruvchi shaxs;
- O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. SHu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar

faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-barang baholash usullaridan foydalanish ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari

1. Kirish.

- o'tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish
- rang-barang misollar imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish
- mavzudan cheklashmaslik
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish
- o'quvchilarning tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish
- teskari aloqani ta'minlash.

3. «Teta – poya» mashq.

Biror misol (yoki masalani) o'quvchilar bilan qadamba-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajariladi.

6. O'quvchilar tushunarlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

O'qitishning noan'anaviy modellari

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o'rganish modeli
- modellashtirish
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli – o'quvchilarni muayyan muammoni echishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarning

AFZALLIKLARI

• Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.

• O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

KAMCHILIKLARI

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmagaligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.

- Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining

AFZALLIKLARI

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- O'z-o'zini baholashning o'sishi.
- O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchining shakllanishiga yordam berish.
- Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish.
- Muammolar echish ko'nikmalarining shakllanishi.

KAMCHILIKLARI

- Ko'p vaqt talab etilishi.
- O'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
- «Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababli «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.

O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'qitish jarayonidagi mavjud an'anaviy ta'lim bilan qurollangan ta'lim muassasalari endilikda o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga o'z qiziqishini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga, e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi.

Taniqli didakt olim M.N. Maxmutovning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy sxemasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini etarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga, e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi.

Maktab, kasb-hunar kolliji va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ilg'or tajribalari yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir hildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi.

Haqiqatan ham, an'anaviy ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy ta'lim jarayoni bilan taqqoslaganda ular o'rtasidagi farq aniq ko'zga tashlanadi. (Jadavalga qarang).

Ta`lim o`ziga xususiyatlari	jaaryonining bosqichlari,	An`anaviy jarayoni	ta`lim	Zamonaviy texnologiyalarga noan`anaviy ta`lim jarayoni	pedagogik asoslangan
1		2		3	
Pedagogik munosabatlar tipi.		Sub`ekt-ob`ekt		Sub`ekt-ob`ekt	
Pedagogik munosabatlar tipi.		Avtoritor		Insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o`zaro hamkorlik.	
Darsning maqsadi		Bilimlarni o`zlashtirish, ko`nikma va malakalarni hosil qilish, o`quv materialini tushunish.		SHaxsning qizig`ishi, motivini rivojlantirish, aqliy, ma`naviy-ahloqiy, ruhiy va jismoniy barkamolligini ta`minlash.	
Ta`limning harakatlantiruvchi kuchi		Tahdid, buyruq, ta`qiqlash, jazolash, baho, boshqalarga taqqoslab, shaxsni kamsitish yoki rag`batlantirish.		Bilish quvonchi, o`zidagi ijobiy o`zgarishlarni xis qilish, o`ziga va o`z bilimiga ishonchning paydo bo`lishi, o`zini va boshqalarni hurmat qilish, o`zaro hamjixatlikka asoslangan qulay ijtimoiy psixologik muhit	
O`quvchining vazifasi		Axborotni qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish va tegishli bahoni kutish.		O`quv topshiriqlari va muammoni hal etishga oid individual, guruhli izlanishlarda ishtirok etish, doimo o`z bilimini boyitish va mustahkamlash maqsadida muntazam va sidqidildan mehnat qilish, o`zini, iqtidorini namoyon etish.	
Ta`limning yakuniy natijasi.		DTS va dastur talablariga mos bilim, ko`nikma va malakalarning shakllanishi erishish.		O`quvchilarning aqliy, ma`naviy-ahloqiy, jismoniy, ruhiy barkamolligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o`zlashtirgan bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo`llashga o`rgatish, o`z ustida mustaqil va muntazam ishlash ko`nikmalarini hosil qilish.	

An`anaviy ta`lim texnologiyalariga asoslangan ma`ruza, seminar, sinov darslarining ta`lim jarayonida tutgan o`rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo`llari ustida qayg`urish zarur.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e`tibor qaratilishi ko`zda tutiladi:

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

1. Ta`lim jarayonini demokratlashtirish. O`quvchilarga tanlash huquqini berish.
2. O`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o`zaro hamjixatlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.
3. O`quvchilarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.
4. Ma`ruza, seminar va amaliy mashg`ulotlarda zamonaviy ta`lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Bugungi ta`lim jarayoni pedagogning shaxsiga bo`lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg`urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o`zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo`lishi, ta`lim oluvchilarni to`g`ridan-to`g`ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag`batlantirishning usutnligi tufayli ko`zlangan maqsadga

erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni aqozo etadi.


Noan'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
- muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Noan'anaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatleri, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;
- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
- o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.



tashkil etish shakllari

Frontal (bir necha
o'quvchidan yakka holda)

Yakka holda, juft bo'lib,
guruhli, frontal shaklda.

1.3. Ta'limning Interaktiv Metodlari

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi.

O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.

Interaktiv meiodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihalasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasi ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodka o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidir.

Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodi ta'lim oluvchi va o'qituvchining o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi jarayon aslida o'quvchini u yoki bu bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatib turadi. Agar keng ko'lamda oladigan bo'lsak, o'qitishning birinchi kunlaridan to shu kungacha o'qituvchi va o'quvchi orasidagi keng ma'noda uch hil bog'lanish shakllangan bo'lib, u o'z tasdig'ini topgan. Ko'rinib turibdiki, uslubiy yondashuvda o'qituvchining barcha metodini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Nofaol metod.
2. Faol metod.
3. Interaktiv metod

Ko'rsatib o'tilgan har bir uslubiy yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega. Quyida biz uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. SHu bilan birga asosiy diqqatimizni o'qituvchining interaktiv usullariga qaratamiz.

Nofaol uslubiy yondashuv-bu o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi bog'liqlik shaklidir. Bunda o'qituvchi darsning asosiy xarakterlanuvchi figurasi hisoblanadi, o'quvchilar esa nofaol eshituvchi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metod darslardagi tezkari mustaqil savol-javoblarda, nazorat ishlarida, test va boshqa usullarda aks etadi. Nofaol metod o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishlaridagi eng samarasiz usul hisoblanadi, lekin uning o'ziga xos ijobiy tomoni mavjud. Bu hildagi darslarga ko'p mehnat talab qilinmaydi. CHegaralangan vaqt oralig'ida katta miqdordagi o'quv materialini topishga imkon beradi. Bu dars turi oliy o'quv muassasalarida keng tarqalgan bo'lib, keng yoyilgan shakli ma'ruzadir.

Faol uslubiy yondashuvda o'qituvchi bilan o'quvchi bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchi nofaol tinglovchi emas, balki darsning faol ishtirokchisiga aylanadi. Agar nofaol dars

metodida asosiy xarakter qiluvchi figura o'qituvchi bo'lgan bo'lsa, bu metodda o'quvchi va o'qituvchi teng xuquqqa egadir. Nofaol darslar o'qitishning avtoritar uslubiga ega bo'lgan bo'lsa, faol metodlar demokratik uslubga egadir. Faol va interfaol yondashuvlarda esa umumiylik ko'proq ko'zga tashlanadi. Umuman olganda interaktiv metodni ko'proq zamonaviy faol metodlarning shakli sifatida ko'rishimiz mumkin. Faol metodlardan farqli o'laroq, interaktiv metodlar o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasini, balki o'qitish jarayonida ularning o'zaro bir-biri bilan faol munosabatda bo'lishlariga yo'naltirilgan (3-chizma)ligi bilan ham ahamiyatlidir. Quyida biz mazkur metodni atroflicha ko'rib chiqamiz:

Interaktiv ("inter"-vzaimniy, "akt"-deystvie-"o'zaro ta'sir" ma'nosini bildiradi) uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotganlari xususida baxslashishlari ham mumkin. Interaktiv darslarda maqsadga erishish uchun etarli zamin yaratadi. O'qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interaktiv mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol darsdagi interaktiv mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi.

Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'ragilgan material nafaqat mustaxkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interaktiv yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan, shulardan quyidagilarni ajratib olamiz:

1. Ijodiy topshiriq.
2. Kichik guruhlar bilan ishlash.
3. Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar).
4. Jamiyatdagi zahiralardan foydalanish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar).
5. Ijtimoiy loyihalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta'lim metodlari (ijtimoiy loyihalar, radio va gazetalar, fil'mlar, saxna asarlari, qo'shiq va ertaklar).
6. Razminka.
7. Yangi materialni o'rganish va mustaxkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, video va audio materiallar, "o'quvchi-o'qituvchi rovida", "har bir kishi har bir kishiga o'rgatadi"), mozaika (ajurali arra) savollardan foydalanish, buqrotli diolog).
8. Murakkab va muzokara talab savol va muammolarni echish ("fikir maktabi", "pozitsiyani egalla", "POPS" loyihalashtirilgan texnikalar, "bir o'zing, ikki kishi birgalikda", "pozitsiyani o'zgartir", "karrusel", "televizion tok shou uslubida munozara", debatlar, simpozium).
9. Muammo-yechim ("yechimli daraxt", "aqliy xujum", "kazuslar tahlili", "kelishuvlar va mediatsiya") va xokozo.

Ijodiy topshiriqlar deganda biz shunday topshiriqlarni tushunamizki, bunda ishtirokchilardan nafaqat oddiy axborotni qabul qilish, balki unga ijodiy yondoshish ham talab etiladi. Chunki, berilgan topshiriqlar katta yoki kichik xajmdagi o'rganilmagan elementga qoidaga ko'ra bir necha yondashuvni talab etadi.

Xullas, hozirgi zamon ilm-fan, texnika rivojlanib borayotgan bir paytda ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishi tabiiydir. Bu ta'limda sifat va samaradorlikka erishishning bosh omilidir.

Interfaol-insonning kompyuter bilan o'zaro bog'lanib ishlashiga, inson mashina o'rtasida diologga o'xshash sifat. Bunday bog'lanish va diologda interaktiv fikrlash va o'quv materialining interaktivligi deyiladi. Ikkinchi inson bilan ommaviy kommunikatsiya vositasi o'rtasida o'zaro bog'lanib ishlashni amalga oshiruvchi sifat masalan, interaktiv muzey (seyt). Bu muzeyga onleyn rejimda borish mumkin.

Interaktiv o'qitish metodi deganda muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etish "aqliy xujum texnologiyasidan" foydalanish mumkin. Kichik guruhlariga o'qitish va umumman o'quvchilar bir-birlarini o'qitadi printsipida dars olib borishni ham tushunish mumkin.

Demak interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilar xozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustaxkamlanadi va darsga qiziqishini orttiradi va intilishga olib keladi.

O'quvchilarni, talabalarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi. O'zi uchun ham oila uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi, hamma jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat albatta dastlab oilada, keyinchalik esa ta'lim muassasalarida shakllanadi.

YOxud Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek "agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa ta'lim

samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bu bilim ham kerak. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylik."

Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek talabalarning bilish jarayonidagi faolligini oshiruvchi va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi metod interfaol metod deb ataladi. O'qitishning interfaol metodi ikki ko'rinishda o'zini namoyon qiladi.

1. O'quvchining o'quv materialini kompyuter yordamida mustaqil o'zlashtirishni ta'minlash. Bunda talaba komp'yuterda tovush, animtsiya va boshqa imkoniyatlaridan (interfaol muhit) keng foydalangan holda o'qituvchi dastur bo'yicha o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradi. U inter'net tarmog'idan ham kerakli axborotni olib o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini ularning jonli muloqotini faollashtirish. Bunda odatdagi o'qituvchi monologini mumkin qadar kamaytirib, talabalarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi strategiyalardan foydalanish, o'qituvchining mashg'ulotdagi xukmronligidan voz kechib, uni talabalarning mustaqil o'zlashtirishlariga yordam va maslaxat beruvchi, ularga mustaqil faoliyat uchun sharoit yaratuvchi maqsadga yo'llovchi shaxs bo'lishga erishishi nazarda tutiladi. Chunki ilmiy-tadqiqotlarda ta'kidlanganidek mustaqil bilish faoliyati ijodiy tafakkurni rivojlantirishni asosi bo'lib hisoblanadi

O'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda J Stil', K Meridis va SH Templarning fikrlashni rivojlanntirish uchun katta xissa qo'shgan "o'qish, yozish va fikrlashni rivojlantirish uchun xalqaro dastur" ni ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. U jaxondagi 30 ga yaqin mamalakatlar ta'lim tizimida yuqori samara bermoqda.

Interfaol usulida inson fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi 60 dan ziyod interfaol strategiya (usul)lar bayon qilingan (4, 9, 13). Bu strategiyalar o'zining soddaligi, o'ta ommaviyligi va o'qitish samaradorligi hamda talabalar fikrlash qobiliyatini benihoya rivojlantrishi bilan ahamiyatlidir. Ularning barchasini pedagog amaliyotida samarali qo'llash uchun maxsus kursni bitirshi zarur.

Interfaol so'zi-o'quvchilarni faollikka chaqirish-tashqidan ta'sir ko'rsatish degan ma'noni bildiradi. YOzuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar. Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalashga imkon beradi.

Maktab o'quv jarayonida amaliyotda o'qitish interaktiv metodlari va o'qitish aktiv metodlaridan foydalanish bo'yicha interaktiv kurslari keng kirib kelmoqda. Bu yo'nalishdani loyihalardan biri Djons Saras ochiq jamiyat homiyligi yordamida xalqaro o'quvchilar assotsiyasi va SHimoliy Ayova universiteti hamkorligida yaratilgan keskin fikrlash bo'yicha loyiha hisoblanadi.

Xeni Stil', Kert Mederis, CHARlos Temnonlar tomonidan tayyorlangan keskin fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'qish va yozishga o'qitish loyihasi materiallari beriladi. Ushbu loyiha butun dunyo pedagoglari hamkorligida amalga oshiriladi. Bunday hamkorlikdan maqsad o'rganilayotgan fandan qat'iy nazar hamma yoshdagi o'quvchilarning keskin fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradigan metodlarni pedagogikaga tadbiiq etish hisoblanadi. Loyiha mualliflari keskin fikrlashga boshidan o'rganib chiqadilar. Keskin fikrlash bu anglangan holda analitik fikrlashdir. Ma'lumotlarni oddiy tushuntirish bosqichining yakunlovchi emas, balki boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Keskin fikrlashni egallab, u inson yoki boshqa g'oyalar bilan tanishadi va ularni amalga oshirishda mumkin bo'lgan oqibatlarni o'rgatadi. Keskin fikrlash g'oyalarni va imkoniyatlarni ijodiy birlashtirish ma'lumotlar konseptsiyalarini qayta tushunish hamda qayta qurish murakkab jarayondir.

Dars o'tish va o'qitish uch bosqichli modeldan iborat bo'ladi. Bu model turli mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha shaklda berilgan, ular oraida Vogann va estens (1986), O'gn (1986), Jilkem va Templ (1986), Tirpi, Ridej va Djerlar (1985) kabilar bor.

Tahlil qilish uchun berilgan bu model fikrlashni o'quvchilar unga o'quv mashg'ulotlaridan oldin, mashg'ulotlar vaqtida, undan keyin jalb etishlari kerak bo'lgan idrok etish jarayoni sifatida qaralgan.

Keskin fikrlash jarayonini tahlil necha bosqichdan iborat?

1. Uyg'otish, chaqirish bosqichini tushuntirish (ilgari o'tilgan bilimlarni qayta esga solish).
2. Anglab etish bosqichini tushuntirish (yangi mavzuni o'rganish).
3. Mulohaza qilish bosqichini tushuntirish (yangi bilimlarni mustaxkamlash).

O'quvchilarning fikrlash jarayonlarini o'rganib chiqib, (Killeps va Minglern 1992) tanqidiy tahlil jarayoni doimiy, muntazam bo'lishi kerak,-deb ta'kidlaydilar. Bu jarayon faqatgina olinayotgan ma'lumotlarni to'g'ri tushunib olishga yordam berib qolmay, balki keyingi mustaqil fikrlash va reflekslantirish uchun asos bo'lib ham xizmat qilishi kerak.

Ta`lim va o`qitish asoslarini ta`riflab mualliflar o`qitishda qo`llashga konseptual bazani taklif etadilar, u fanning turi va o`qitilish yo`li paralelligiga qaramay, sinflarda asta –sekin amalga oshirilishi mumkin. Bunday yondashishi o`quvchilarda tanqidiy tahlil qilishga oqilona va tanqidiy fikrlash jarayonlarini amalga oshirishga, o`quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiradi deb hisoblaydilar. Taklif etilayotgan model qisman Vogan va esteslar ishlab chiqqan va uning ko`rinishini Mnderni Va Stil (1997) lar o`zgartirgan va kengaytirgan modelga asoslangan.

Ta`lim va o`qitish asoslarini tuzuvchilar unga o`quv kontekstini kiritishni, yangi darsning tuzilmasini qurishni taklif etadilar. O`qitish mazmuni aqliy xujumdan boshlanadi. Misol uchun Kitg Xayning (dengiz toshbaqalari) deb nomlangan kichik maqolasini o`qib chiqish taklif etiladi. Oldin o`qib chiqib dengiz toshbaqalari haqida biroz o`ylab olish taklif etiladi, buning uchun muxokama qilish uchun sherik tanlanadi. 3-5 minut davomida sherigi bilan hamkorlikda toshbaqalar haqida mavjud bilimlar yozib chiqiladi, miyaga qanday fikr kelsa, hammasini yozib olish kerak. Yozilgan narsaning to`g`ri noto`g`riligi ahamiyatga ega emas, iloji boricha ko`proq ma`lumotlar yozish muhimdir. Sheriklar muxokamani yakunlaganlaridan keyin guruhlar a`zolaridan dengiz toshbaqalari haqidagi o`z bilimlari bilan o`rtoqlashishlari taklif etiladi. O`quvchilar o`z fikrlarini gapirib berar ekanlar, ularni doskadagi qog`ozdan yozib berish kerak. Har qanday kelishmovchiliklar muxokamaga olib chiqilishi kerak. Ana shu ish jarayoni davomida vaqti-vaqti bilan aytilgan gaplar to`g`rimi deb sakvol berib turish zarur. Bundan tashqari muxokama etilayotgan savollar bo`yicha o`rtoqlik tortishuvlari, turli fikrlar va qarama-qarshi fikrlarga yo`l berib turish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Yangi g`oyalar va tanishuvlardan ba`zilari qarama-qarshi xususiyatga ega bo`lishi mumkin. Bularni sinfda aniqlab, tahlil etish mumkin, chunki qarama-qarshliklar shaxsiy savollarni vujudga kelishiga olib keladi. SHaxsiy savollari esa o`qish va tushunish uchun xarakatlantiruvchi kuch bo`lishi mumkin.

Amerikalik tadqiqotchi Pireon (1990) tushunishni “o`z savollariga javob topish” deb ta`riflashni taklif etadi.

O`qitish natijalari uzoq saqlanib qolishlari va tushunish darajalari har hil odamlarda turlicha bo`ladi. Tushunishning uzoq saqlanib qolishi Pirs va Fildinglar tomonidan 1951 yili hisoblanib chiqilgan. Unga binoan o`quvchilar anglab etgan ma`lumotlarni o`z so`zlari bilan ifoda etsalar, olgan tushunchalarini yaxshi eslab qoladilar. Hamda o`quvchilar o`rtasida jonli g`oyalar bilan almshish tashkil etiladi, u o`z ekspressiv so`z boyliklarini kengaytirish va boshqa o`quvchilar tasavvurlari bilan tanishib olishga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlashni o`stirishga xizmat qiladigan metodlar “Demokratik ta`lim uchun” konsepsiumi tomonidan amalga oshiriladigan “Tanqidiy fikrlash uchun o`qish va yozish” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Konsepsiumi a`zolari: Xalqaro o`qish asossattsiyasi, Xobart va Vilgam kolejlari va SHimoliy Ayova shtat universiteti. Bu loyihani N`yu York Ochiq jamiyat instituti va Markaziy Osiyo to`g`risidagi Markaziy va SHarqiy Evropadagi Saros fondi mablag` bilan ta`minlaydi.

Bu paragrafda metodlar mazmuni mazkur loyiha materiallariga muvofiq ravishda yoritiladi.

Braun (1989) ta`kidlaydiki, vazifa va real xayot maqsadlaridan ajratilgan o`quv ko`nikmalari ta`lim oluvchilarga ob`ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin. Lekin ular bu ko`nikmalarni yangi vaziyatlarda qo`llay olmaydilar.

Rixer ta`rifi bo`yicha o`rganish va fikrlashning ta`rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimediya madaniyati ta`limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari;

1. Samarali va muttasil o`rganish asosida talabalrning axborotlarini o`zlashtirish, sintezlash va ularni to`la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O`rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli-tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo`ladi. (Palinskar va Braun).

3. O`rganish va tanqidiy fikrlash talablarining aniq vazifalariga nisbatan yangi bilimlarni qo`llash imkoniyatlariga ega bo`lgan taqdirda rivojlanadi. (Pesnik, 1987).

4. O`rganish talablarining oldingi bilimlari, tajribalariga tayanganlagina mustaxkamlanadi. Bular talabalarining olgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog`lash imkoniyatini beradi. (Kas, 1990).

Pirson, Xonsen, Gardon (1979)lar ta`kidlashadiki, o`z fikrlarini ijod qilish g`oya avvalgi g`oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jixatdan tadqiqi qilishga olib keladi. SHuning uchun ham:

– Fikrlarini o`z so`zlari bilan ifodalash;

- O'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- O'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- Fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Mixail CHikjentmexaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bish jarayonida qatnashganligidan katta baxra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish xissini sezadilar.

Interfaol usullarni qo'llash

O'qitishning interfaol metodi bir qancha interfaol usullardan iboratdir. Interfaol usullarni qo'llash orqali o'qitish samaradorligin oshirishga, talabalar fikrlash qobiliyatini oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Ana shunday usullardan biri aqliy xujumni darsga tadbiq etish mumkin.

Aqliy xujum-muammolarni xal qilishda keng qo'llaniladigan samarali metoddir. U qatnashuvchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammoga ko'p sonli to'g'ri echimlar topishga yordam beradi. Dars mashg'ulotlariga o'tiladigan mavzu qirralarini qarama-qarshiliklarini ko'rsata olish sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish o'zaro munosabatlarini bildirib himoya eta olish asoslab berish, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglay olish, baholash maqsadida ushbu metodni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu dars maqsadi birgalikda o'qitishga ko'maklashuvchi uslubiy yo'llar ya'ni o'quvchilarga jamoada o'qitish yo'li bilan bilim olishlari to'g'risida tasavvur berish.

3-sinf "Tabiatshunoslik" fani "Bog'larda uchraydigan qushlar mavzusi".

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsad.

Tabiatimizda mavjud bo'lgan qushlarni asrash haqidagi hikoyalarni mustaqil o'rgatish. O'quvchi so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlashga, insonlar mehnatini qadrlashga o'rgatish. Markaziy Osiyo allomalarining qarashlari bilan tanishtirish:

B) tarbiyaviy maqsad:

Tabiatga ozor bermaslikka, qushlarni, o'simlik va xayvonlarni asrab-avaylashga o'rgatish.

S) rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, ekologik dunyoqarashini tafakkur doirasini kengaytirish.

Darsning jixozi: tabiatni muxofaza qilishga bag'ishlangan eksponatlar, xayvonlar, qushlar va o'simliklar tasvirlangan ko'rgazmali qurollar.

Darsning turi: aqliy xujum, savol-javob.

O'qituvchi oldin o'tilganlarni mustaxkamlab "Bog'larda uchraydigan qushlar" mavzusi bo'yicha suxbat o'tkazadi. Ushbu darsni quyidagicha rejalashtiradi. Interfaol usul yordamida o'quvchilar bilimlarini mustaxkamlanadi.

DARSNING BORISHI

1. Quyidagi savollar yordamida o'quvchilarning "Bog'larda uchraydigan qushlar" mavzusini o'zlashtirishlariga erishish.

2. Zararkunanda xashoratlarga qarshi kurashda bizga qanday qushlar yordam beradi?

3. Qaysi qushlar ko'pincha bog'larda yashaydi va zararkunanda xashoratlarni qiradi?

4. Mavzuga oid Markaziy Osiyolik allomalarning ekologik qarashlari bilan tanishmisiz?

"Bog'larda uchraydigan qushlar" mavzusi bo'yicha "Bilimdon" metodi yordamida o'qitish.

Sinf o'quvchilari uchta guruhga bo'linadi va ularga nom qo'yiladi. YOzuv taxtasi ham uch qismga ajratiladi. eng yuqoriga "Bilimdon" deb yozilgan, birinchi bandning yuqori qismiga "Bilaman", ikkinchi bandning yuqori qismiga "Bilishni xoxlayman", uchunchi bandga "Bilib oldim" degan so'z yoziladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga ega bo'lganliklarini so'raydi va bildirgan fikrlarning to'g'riligini "Bilaman" nomli bandga yozib qo'yadi. Ushbu xarakteristik guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilgunga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (chunki bunday xarakteristik guruhlarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

BILAMAN

Qushlarni asrashimiz zarur, ular o'zlarining sayrashlari, chiroyli ranglari, havoda erkin uchishlari bilan bizga quvonch bag'ishlaydi. Qushlar dala, poliz va bog'larimizni zararkunanda xasharotlardan muxofaza qiladi.

Bog' o'simliklariga ham dala va poliz ekinlaridagi xasharotlar zarar etkazadi. Ba'zi xasharotlar o'simliklarning barglarini esa, ikkinchilari gulini, uchinchilari mevasini eydi. Po'stloqxo'r qo'ng'izlar

ham bor, ular o'simliklar po'stlog'ini zararlantiradi. Bog', shuningdek, poliz ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashishida chittak, qarqunoq, qizilishton, zarg'oldoq kabi qushlar yordam beradi. Qushlar xasharotlar bilan faqat o'zlari oziqlanibgina qolmay balki, o'z bolalarini ham boqadi. Tunda qushlar o'rnini ko'rshapalaklar egallaydi. Ular tunlam kapalaklari, chivin va iskabtopar kabi tungi zararli xasharotlarni qiradi.

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va ularni yana o'ylashga, fikrlashga davat etadi. Navbati bilan guruh vakillaridan fikrlari so'raladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan tushunchalar "Bilishni xoxlayman" nomli ustunga yozib boriladi.

BILISHNI XOXLAYMAN

Qushlar ob-havoni aniqlab berishi mumkinmi?

Alisher Navoiy qushlarga qanday g'amxo'rlik qilgan?

So'nggi bosqichda o'qituvchi "Bog'larda uchraydigan qushlar" mavzusiga oid tayyorlangan matnlarni tarqatadi. Ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar matn bilan tanishib chiqqandan so'ng, ularning fikr yuritishlari, natijasi bo'yicha mavzuga oid yana qanday materiallarni o'zlashtirish lozimligi aniqlanadi. O'quvchilarning xulosalari asosida bildirilgan fikrlarni "Bilib oldim" nomli ustunga yozib boriladi.

BILIB OLDIM

Markaziy Osiyolik olim Abu Rayxon Beruniy o'zining ekologik qarashlarida "Qushlarning tog'lardan pastliklarga, tekisliklarga tushushi, chumolilarning o'z inlariga berkinib olishlari havoning sovushidan dalolatdir" degan ma'lumotni bergan. Alloma Alisher Navoiy chodirga uya qurgan musichaning ini buzilmasligi uchun bog'da o'z chodirini qoldirib, mulozimlariga musicha bola ochguncha siz shu erda qoling. U bolalarini uchirib ketgach, keyin chodirni yig'ib borarsiz deb tayinlaganlar. Ular ham jonivorlarga g'amxo'rlik qilishda ustoz yo'lidan borgan. Ajdodlarimizning ushbu ekologik qarashlari qushlarni asrashimiz haqidagi tushunchamizni yanada boyitadi.

Dars so'ngida O'rta Osiyolik allomalarning ekologiyaga doir qarashlari haqida olgan bilimlarini mustaxkamlash maqsadida qisqacha muxokama qilinadi.

O'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan uy vazifalarini tabiatshunoslik daftariga yozdiradi.

O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAXKAMLASH

SHundan so'ng test savol usuli yordamida o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlari mustaxkamlanadi. Ma'lumki sinf o'quvchilari partalar qatori bo'yicha uch guruhga bo'lingan. Guruh sardorlari test kartochkasini olib, o'z guruhlaribilan javoblarni muxokama qilib to'g'ri javobni belgilaydi. Faoliyat yakunida test javoblarining bajarilishi yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. Qaysi guruh a'zolarining javoblari ijobiy bo'lsa, demak o'sha guruh g'olib deb topiladi. Test kartochkasiga O'rta Osiyo allomalarning ekologik qarashlari yozilgan.

TEST KARTOCHKASIDAN NAMUNA

Qushlarning tog'lardan pastliklarga, tekisliklarga tushushi, chumolilarning o'z inlariga berkinib olishlari havoning qanaqa xolatda bo'lishidan dalolat beradi?

A) yomg'ir yog'ishidan

B) isib ketishidan

S) qor yog'ishidan

D) sovib ketishidan.

UYGA VAZIFA

Tabiatshunoslik daftaringizga : bog'larda qanday zararkunanda xasharotlar uchraydi? Nomlarini yozing va rasmini chizing.

3-sinf "Tabiatshunoslik" darslarida O'rta Osiyolik allomalarning ekologik qarashlaridan foydalanib o'qitish. O'quvchilarda ekodogik qarashlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon o'quvchining mustaqil ishlarida namoyon bo'ladi. Boo'lang'ich sinflarda ekologik ta'lim tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish asosida o'quvchi shaxsining ichki mikoniyatlarini rivojlantirish va namoyon qilish uchun pedagogik qulaylikni vujudga keltirishdan iboratdir.

"AQLIY XUJUM"METODI

Bu metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod bo'lib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Va mukammal yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. "Aqliy xujum"

metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlab, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Bu metodda qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Ishtirokchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirib boriladi. Va fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Va fikrlarni rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Oldin bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

4. Mashg'ulot paytida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agar ularni fikrlari baholanib boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini o'axsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatida ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Bu metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Aqliy xujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida “aqliy xujum” dan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy xujum” ni uyushtirish birmuncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo echimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga “xujum” qilishi yoki baholashga haqqi yo'q. Demak, “aqliy xujum” yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy

“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo echimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, “aqliy hujum” yo'li bilan qisqa minutlarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

SHunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

VAZIFASI. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralari topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

OB`EKTI. qo`llanish maqsadiga ko`ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o`qitish jarayonida (o`quv materiallarini tezkor o`zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o`z-o`zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

QO`LLANISH USULI. “Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo`yilgan muammo bo`yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o`z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo`ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko`ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh: hurmatli kitobxon, mana, amerikacha “aqliy hujum” metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirsiz). Aytmoqchi bo`lgan fikrimiz inkor va ta`kid xususida: bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir. hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o`z aql mash`alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg`oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa) olasizmi, yoki etti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olasizmi, ular o`z muammolarini echishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlashgan, ya`ni: “kengash”, “mashvarat”, “maslahat” deb atashgan. Misol uchun ,Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni echishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru-ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko`proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo`ladi. “Agar (g`anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo`lsam, urush-yarashdan o`rtaga so`z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so`z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko`rardim, agar urushga moyil bo`lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko`rardim, qaysi biri foydaliroq bo`lsa, shuni ixtiyor qilardim” (28). Bugun ana shular haqida o`yga tolib, “g`arb sharqdan o`rgangan”ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

ESSE

YOZUV malakalarini rivojlantiruv interfaol usullar.

Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko`rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi mikoniyatlar beradi. YOZMA nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to`xtalamiz:

A) esse. esse “fransuzcha – tajriba- dastlabki loyixa” shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda tinglovchi o`zining mavzu bo`yicha taassurotlarini, g`oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog`ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog`ozdan uzmasdan, to`xtalmasdan yozish. So`ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo`lishi e`tirof etilgan. essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag`ishlab yozish tavsiya etiladi. esse-talabalarning darsda eshitgan ma`ruzasi yuzasidan idrok etgan, o`zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

B) Asoslovchi esse-bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo`yichap muayyan nuqtai-nazarga ega bo`lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. SHundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo`ladi. esse metodi o`zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g`oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

S) Texnik diktant-texnikaga oid matndagi gaplar ayrim so`zlari, formulasi yoki biror fikr tushurib qoldirilib diktovka qilinadi (yoki magnitafonda eshittiriladi). O`quvchilar esa har bir bo`sh qolgan joyga oid javoblarni o`zlari topib yozib boradilar. Texnik dikt`antni barcha fanlardan qo`llash tavsiyae tiladi.

Hamma fanda qo`llansa bo`ladi. Diktantlar asosan ona tili uchun bajariladi. Bu yozuv turini hamma fanlarda ishlatib borsak bo`ladi.

D) Taqriz-bu o`qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai-nazardan baholanishidir. Taqriz yozishda quyidagilarga e`tibor berish zarur;

Taqriz-matnni o`qigan kishining bu haqidagi shaxsiy fikri, bayon bo`lishi lozim, matndan ko`chirib yozish yoki uni qayta ta`riflash qabul qilinmagan.

2-bob. MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA NOANANAVIY VA INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISHNI USLUBIY ASOSLARI

2.1. Noan'anaviy dars mashg'ulotlari;

Pedagogik jarayonni tashkil etishda xar bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini xisobga olish zarur. Pedagogik mulokat urnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalanish extiyoji tugildi. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Lotinchadan "inter"- uzaro, "akt"- mulokat, yakinlikdir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maksad shuki, darslarni kizikarli, sermazmun, eng muximi samarali kilib utkazishdir. Bunda o'quvchining bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va ukuv jarayonining maxsuldorligi kupayadi. Ma'lumki yaxshi uzlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib utirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, uylab kurish, muxokama kilib chikish, yordamchi vazifalar bajarishi kerak. Xozirgi paytda biz pedagoglarning asosiy vazifamizdan biri talabada mustakil shugullanish malakasini xosil kilishidir. Interaktiv usullardan foydalanilganda, talabaning barcha psixik jarayonlari idrok ong, dikkat, xotira, sezgi, akl, tasavvur, tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun izlashga, kidirishga, fikrini rivojlantirishga yunaltiriladi. Bunda materialni uzlashtirishga bulgan extiyoj, mayl ortib boradi va natija xam samarali buladi. Interaktiv usullar amaliy mashg'ulot vaktida utkazib, ma'ruza bilimlarini chukurlashtirish, kengaytirish, aniklashtirish mustaxkamlash va rivojlantirish uchun muljallangan.

Mashg'ulotlarni tashkil kilish usullari

Interaktiv usullarga: "miya xujumi", mojaro metodi, "dumalok stol", "uch boskichli interv'yu", "muammolarni xal kilish metodi", "stol urtasidagi ruchka", "galereyani aylanish", "akademik munozara", "kor buron" metodi, "asalari galasi" "kritik vaziyatni taxlil kilish" va b. kiradi.

Bu metodlar buyicha ishlash uchun 5 kishidan iborat guruxlar tuzib, ishonchli vaziyatni vujudga keltirib, oshkora muxokama kilish uchun psixologik keskinlikni bartaraf etish kerak.

Afzalliklari:

1. Katnashchilarga uz goyalari va fikrlari bilan kuprok urtoklashishi, ularning bir-biridan urganishi uchun imkon beradi.

2. Kichik guruxlarda katnashchilar katta guruxda aytishlari mumkin bulgan fikrlardan boshkacha fikrlarni aytishlari mumkin .

3. Dikkat markazini pedagogdan katnashchilarga kuchiradi.

4. Katnashchilarni uz ustlariga kuprok mas'uliyat olishga majbur kiladi.

Interaktiv mashg'ulot turlari

Miya xujumi:

Mas: O'quvchilarga pedagogika tarmoklarini sanab berish topshiriladi. Javob berilayotganda – javoblar izoxlanmaydi yoki urinsiz deb rad etilmaydi. Javoblar tugagach o'quvchilar ukituvchi bilan birgalikda javoblarni muxokama kilishadi. Yoki psixologiyadan tafakkur operatsiyalarini sanab berish topshiriladi. Gurux a'zolari shu mavzu yuzasidan gaplashib, miyaga nima kelsa, shularning xammasini daftarga yozib olishadi. Keyin xamma uz fikrini bayon etadi. goyalarni yozish uchun bir kishini ajratish kifoya kiladi. Bu metod guruxni birlashtirib, yakdil kiladi.

Mojaro metodi:

Axlodiy tarbiya mavzusi buyicha muammoli vaziyat kurinishidagi topshirik beriladi. SHu topshirikni taxlil kilib, tez karor kabul kilish zarur. Yoki psixologiyadan dikkat mavzusi buyicha turli muammoli vaziyatlar berilishi mumkin. Bu metod o'quvchilarga tez fikrlashni va favkulodda vaziyatlarda ishlashni urgatadi.

Dumalok stol metodi:

Topshirik yozib kuyilgan kogoz varagi davra buylab utkaziladi. Xar bir o'quvchi uzining javob variantini yozib kuyadi va varakni boshka o'quvchiga uzatadi. Javoblar tugagach, muxokama buladi. Notugri javoblar uchiriladi, tugri javoblar soniga karab o'quvchilar baxolanadi.

Masalan: **1** Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini kursating. **2** Pedagog maxoratlarini aytib bering. Yoki **1** SHaxs komponentlarini belgilab bering. **2** Leongard buyicha xarakter xususiyatlarini sanab bering va x. k.

Uch boskichli interv'yu:

Gurux 3 ga bulinadi pedagog – o'quvchi - ekspert. Xar bir gurux shu rollarni egallaydi. "Pedagog" guruxi mavzu buyicha savol va topshiriklar berishi, "o'quvchi" guruxi javob berishi, "Ekspert" guruxi ularni baxolashi zarur. Ekspert 3 bulimga bulib baxolaydi:

1. Nimalar tugri kilindi.
2. Nimalar notugri kilindi.
3. Kandy kilish kerak edi.

Bu metod o'quvchilarga surab-surishtirish, pedagogik mulokot olib borish, bilim va malakalarni tekshirish va baxolashni urgatadi.

“Ruchka stol urtasida” metodi.

Guruxga topshirik beriladi. Xar bir o'quvchi uz javob variantini varak kogozga yozib, uni kushnisiga uzatadi, uz ruchkasini stolning urtasiga surib kuyadi. Javobni bilmaydigan o'quvchi kogozni keyingisiga uzatib ruchkani uzida olib koladi. Javob variantlari yozilgan kogoz ukituvchiga beriladi va birgalikda muxokama kilinadi. Bu metodda ukituvchi mashgulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini kurib turadi.

Masalan: Tarbiya usullarini belgilab bering. Yoki temperament turlari va ularning asosiy xususiyatlarini kursating.

“Galereyani aylanish” metodi.

Kichik guruxlarga 1 ta muammo taklif etiladi. Xar 1 gurux 10 min davomida uz fikrlarini yozadida, javob yozilgan varaklarni 2 chi gurux bilan almashtiradi. Keyingi gurux oldingi guruxning javoblarini baxolashi va javob tulik bulmasa, uz javobi bilan tuldirishi kerak.

Masalan: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning boskichlari. Javoblar yozib bulingach, varaklar doskaga osib kuyiladi va birgalikda muxokama kilinadi.

Akademik munozara.

Gurux 2 komandaga bulinadi, xar biriga vaziyatga oid topshirik beriladi, masalan: “o'qituvchi - o'quvchi mulokoti”. Bunda 1chi gurux mulokotning salbiy tomonlarini taxlil kiladi - ya'ni “prokurorlar”. 2 chi gurux vaziyatning ijobiy tomonlarini izoxlab beradi. Vaziyatga oid topshirik yoki rolli uyinni muxokama kilish uchun talabalar shu mavzu yuzasidan chukur bilimga ega bulishi kerak.

“Kor buron” metodi.

Ikki gurux o'quvchilari bir muammo yoki vaziyatni muxokama kilib eng kup mikdorda tugri javoblar olish kuzda tutiladi. Xar bir tugri javob yumaloklangan kor kurinishida usha guruxga ball tarikasida yozib kuyiladi. Eng kup ball olgan gurux a'lo baxolanadi.

Kritik vaziyatni taxlil kilish.

Biror bir tashvishli muammoli vaziyat muxokama kilinishi kuzda tutiladi. Bunda nimani boshkacha kilish kerak edi, nima uchun bu xatoga yul kuyildi, xatoni takrorlamaslik yoki tuzatish uchun nimalar kilish lozim, degan masalalar kurib chikiladi. Javob variantlari iloji boricha kup bulishi kerak.

“Akvarium” metodi.

Guruxdan 5 kishi tanlab olinadi. Ular sinfxonasining urtasidan joy oladilar – guyoki “balik”, kolganlar kuzatuvchi bulishadi. Kichik guruxga bir vaziyat taklif etiladi. Ular buni birgalikda muxokama kilishlari, kuzatuvchilar ularning tugri yoki notugri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval “baliklar” versiyasi beriladi, keyin kuzatuvchilar uz versiyalarini taklif etadilar. Eng yaxshi versiya muallifi uz versiyasini taklif etmagan o'quvchi urniga kichik guruxga utadi. Buni “Nima, kachon, kaerda” degan uyin singari xam utkazish mumkin, ukituvchi oldindan tayyorlab kuyilgan savollarni beradi, o'quvchilar bularni 1min davomida muxokama kilib, javob berishadi. Javoblar kanaotlanarli bulmasa, stolga boshka o'quvchilar utirishadi. o'quvchilarda munozara olib borish malakasi rivojlanadi.

“Kora yashik” konkursi

Ukituvchi topshirish variantlari yozib kuyilgan kartochkalarni tayyorlaydi. o'quvchilar tavakkaliga kartochkalardan oladi. Savollarga javoblar yozma shaklda beriladi.

“Kim kuprok? Kim tezrok” konkursi.

Bir kancha savollarga istagan o'quvchi bir minut ichida javob beradi. Ekspert tugri javoblarni sanab boradi. Bu konkurs “Eng zaif xalka” uyiniga uxshab utadi. Masalan: 1. Kuzi ojizlar bilan shugullanadigan pedagogika tarmogi kanday nomlanadi? 2. Psixologiyaga stress tushunchasini kiritgan olim kim?

2.2. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishini ta'minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni

ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Interfaol usullarni qo'llash bo'yicha **umumiy metodik tavsiyalar:**

1. Ishlash uchun joyni tayyorlash. sinfxonasini shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun qulay joylashishlar zarur.

2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish. Barcha tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo'lib, so'z erkinligini hurmat qilishlari kerak.

3. Tinglovchilarning guruhlarga bo'linishiga jiddiy e'tibor berish.

4. Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak.

5. Tinglovchilarning mashg'ulotga ruhiy tayyorgarligiga ko'maklashish.

6. Interfaol usullar asosida mashg'ulotlar o'tkazilganda guruhda ta'lim oluvchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. 4-6 kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

“Aqliy hujum” usuli-g'oyalarni ishlab chiqish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar. “Aqliy hujum” quyidagi qoidalar bo'yicha o'tkaziladi: -fikir hech qanday cheklanmagan holda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim; -har qanday fikrni aytish mumkin, u qabul qilinadi; -g'oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifalarga bevosita bog'liq holda aytiladi; -takliflar berish to'xtatilmaguncha, aytilgan g'oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar: 1. Ishtirokchilarni majburiy bo'lmagan holda o'tkazing.

2. Fikrlarni bayon qilish uchun qog'oz va doskani tayyorlang. 3. Aqliy hujum ishtirokchilariga muammoni yetkazish kerak. 4. Ish tartibini aniqlang: **a)** fikrlar tashlanganda ularni baholamang **b)** doimiy fikrlash ozodligi **v)** qancha aqli fikr ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi **g)** “ushlang”, “tuting” boshqalarning fikrlarini rivojlantiring 5. Fikrlar to'g'risida surishtiring va tezda ularni yozing. 6. Qog'oz varag'i to'ldirilganda, uni muhokama uchun qo'ying. 7. O'z g'oyalaringizni qo'shib yangi g'oyani rag'batlantiring. 8. Boshqalar fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo'l qo'ymang.

Aqliy hujumning asosiy ko'rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdur. Agar ish daliliy axborotga bog'liq bo'lsa, unda ta'lim oluvchilarga dalillar ro'yxatini tuzish taklifi beriladi. Ikki daqiqadan so'ng individual ishdan keyin ular bir-birlari bilan muloqotda bo'lib muhokama qiladilar va o'zlarining ro'yxatlarini birlashtiradilar.

“CHarxpalak” texnologiyasi-ushbu texnologiya ta'lim oluvchilarni o'tilgan barcha mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida ularni baholay olishga qaratilgan. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biror-bir bo'limi tugallanganda o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan.

O'tkazish texnologiyasi: 1. Ishtirokchilar kichik guruhlarga bo'lib olinadi (sharoitga qarab). 2. Mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish. 3. Guruh ishtirokchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar. 4. Har bir guruh ishtirokchisi o'zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining biror bir belgisini chizib qo'yishi kerak. 5. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga tarqatiladi. 6. Yangi guruh a'zolari berilgan materiallarni o'rganib, unga o'z o'zgartirishlarini kiritadilar. 7. Tuzatish, o'zgartirish kiritilgan materiallar yana bir marta boshqa guruhlarga uzatiladi (guruhlar soniga qarab). 8. Guruhlar materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so'ng har bir guruh ishtirokchisi o'zining birinchi to'ldirgan materialini (guruh raqami va o'zi qo'ygan belgi asosida) tanlab oladilar. 9. Har bir guruh ishtirokchisi tarqatma materialdagi o'zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ishtirokchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar. 10. Ta'lim beruvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o'qib, guruhlar bilan to'g'ri javobni belgilaydilar. 11. Har bir ishtirokchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to'playdi va o'z-o'zini baholaydi.

Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/Bh/B)-biror matn yoki mavzuni interfaol o'qish-o'zlashtirish usullaridan biri bo'lib, jadval ko'rinishida bajariladi va quyidagicha qo'llaniladi: ta'lim oluvchilarga biror mavzu e'lon qilinadi. Bu to'g'rida ularga ma'lum bo'lgan axborotlarni jadvalning “Bilaman” qismiga, mavzu bo'yicha yana qanday ma'lumotlarni bilishni xohlashsa, ularni jadvalning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadilar. So'ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi. Ular mikrogruphlar tarkibida matnni mustaqil o'zlashtirib, jadvalning “Bildim” qismini to'ldiradilar. Har bir guruh sardori tuzilgan jadvallarni taqdim qiladi. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanadi.

“FSMU” texnologiyasi –ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozarlar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida, biror bir bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda ta‘lim oluvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga ham tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. **F**-fikringizni bayon eting, **S**-fikringiz bayoniga biror bir sabab ko‘rsating, **M**-ko‘rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring, **U**-fikringizni umumlashtiring

“Davra suhbatlari”-aniq ish tajribasini o‘rganish, axborot almashish kabi faoliyatlarni o‘tkazishda ko‘maklashadi. Davra suhbatini ikki xil shaklda o‘tkazish mumkin: **1) Yozma davra suhbatlari**-o‘zaro hamkorlikda muammo yoki g‘oya-fikrlarni samarali usulini topishning usuli. A‘zolar ko‘rilayotgan u yoki bu masala yuzasidan o‘z g‘oyasi yoki taklifini yozadi, so‘ng yozilgan qog‘ozni yonidagi a‘zoga uzatadi. Navbatdagi a‘zo berilgan g‘oya yoki taklif yuzasidan mustaqil bilimi va qarashlariga asoslangan holda tushuncha va izohlarini qo‘shimcha qiladi va navbatdagi a‘zoga uzatadi. Har bir ishtirokchi fikrlarini o‘zi tanlagan rangli qalam bilan yozadi. Bu har bir ishtirokchining suhbatda qatnashganlik darajasini yaqqol ko‘rsatadi. Jarayon to‘barcha a‘zolar o‘rganilayotgan masala yuzasidan o‘z bilim va munosabatlari asosida mustaqil fikr yoki savollari bilan ishtirok etib bo‘lishlariga qadar davom ettiriladi. **2) Og‘zaki davra suhbatlari**-bu yuqorida ko‘rsatilgan usulga o‘xshash bo‘lib, faqatgina og‘zaki shaklda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbat bilan, undan oldin taklif etilgan fikrlarni qabul qilib olib, uni rivojlantiradi.

“Taqdimot”. Taqdimotni muvaffaqiyatli amalga oshirishda e‘tibor qaratiladigan jihatlari: **1.** Qaysi masala yuzasidan fikr yuritmoqchi bo‘lsangiz, uni har jihatdan mukammal o‘rganing. Uch aniq vazifani amalga oshirish asosida masala har jihatdan samarali yoritilishiga erishish mumkin. A) Yoritib beriladigan masalaning asosiy mazmun-mohiyati nimada? degan savolga javob topish. B) Yoritib beriladigan masala yuzasidan shaxsiy nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so‘zlari, tezislar, dalillarni kema-ket tartibda belgilash. V) Taqdimot o‘tkazilgandan so‘ng, sizga nisbatan auditoriyaning munosabati qanday bo‘lishi to‘g‘risida o‘ziga xayolan savol bilan murojaat etish. **2.** Masala yuzasidan yoritadigan materiallarni tizimlashtirish: kalit so‘zlar, tezislar, dalillar uchun qisqa, aniq va lo‘nda jumlar tuzish. Har bir jumlaning qo‘llab quvvatlovchi uchta asosni tanlab, belgilab oling.-masalani har tomonlama yoritib berishga qalban ishonch uyg‘otish; -nutq so‘zini juda ham ma‘nodor epigraf bilan boshlash;-masalani mazmun-mohiyatini ochib beruvchi, asoslangan ochiq so‘zlarga ega bo‘lish. **3.** Tajribadan o‘tkazish asosida puxta tayorgarlik ko‘rish. Taqdimot materiallarini tizimlashtirib bo‘lgandan so‘ng, quyidagi jadvalni tayorgarlik ko‘rish uchun ishlatish: Masala nomi. Ustuvor tamoyillar. Nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so‘zlar. Qo‘llab-quvvatlovchi asoslar. Tarixiy manbalar.

“Bumerang”. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan ta‘lim oluvchi yoki ta‘lim beruvchi ro‘lida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi. Asosiy tushunchalar quyidagilar: **Ochiq savollar**-bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. **Yopiq savollar**-bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq javoblarni berishni ko‘zda tutadi. **Ko‘ndalang so‘roq**-bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Sinkveyn” usuli-o‘rganilayotgan materialni to‘laqonli anglash uchun qo‘llaniladi. Sinkveyn-frantsuzcha besh qatorli o‘ziga xos, qofiyasiz she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yozilgan holda o‘quv so‘zi turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish qoidasi quyidagicha:-birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so‘z, odatda ot so‘z turkumi bilan ifodalanadi.(kim? nima?). –ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi.(qanday?

qanaqa).-uchinchi qatorga mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so‘z (fe‘l) bilan ifodalanadi.-to‘rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvur anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi.-oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma‘nosi unga o‘xshash bo‘lgan bitta so‘z (sinonim) yoziladi.

“Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) usuli ta‘lim oluvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu turli

xil g'oyalari o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster usuli aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatini bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Usuldan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Bunda ilg'ri surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyati yaratiladi. Klaster usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

-nimaniki o'ylagan bo'lsangiz shuni qog'ozga yozish; -fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib borish; -so'zlardagi imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermaslik; -belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamaslik; -agar ma'lum bir muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsani rasmini chiza boshlash, bu harakatni yangi g'oya tug'ulguniga qadar davom ettirish; -muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilg'ri surish hamda g'oyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qilish; -g'oyalari yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamaslik.

“T”-chizma-ma'lum bir masalani ikki tomonlama taqqoslash asosida tahlil qilish usulidir. Juft (ijobiy/salbiy; ha/yo'q; rozi/qarshi kabi) javob yoki taqqoslashlarni qayd etuvchi serqirra yozma ishni tashkil etishda ko'maklashuvchi usuldur.

O'xshash jihatlar

Farqli jihatlar

1. Geografiya fanini o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/BH/B).

Masalan,

1. **Geografiyada** Afrika mavzusi o'tilishi o'quvchilarga e'lon qilinadi.

2. O'quvchilar mavzu bo'yicha jadvalning birinchi (bilaman) va ikkinchi (bilishni xohlayman) deb nomlangan qismlarini to'ldiradilar.

3. So'ngra mavzuga oid material tarqatiladi. Tarqatma material o'zaro raqib guruhlar tomonidan o'qib o'rganilgandan keyin jadvalning uchinchi (bilib oldim) bandi to'ldiriladi.

4. Guruhlar tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro taqqoslanadi.

Bilaman

bilishni xohlayman

bilib oldim

Afrika

Afrika materigini tabiiy

Afrika materigini tabiiy sharoiti

sharoiti

B/BH/B usulining afzalliklari:

1. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

2. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

SHuningdek, mavzuni o'zlashtirishda “FSMU” va “taqdimot” kabi usullardan foydalanish ham qo'l keladi.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. (mavzu/mashg'ulotlar)da quyidagi usuldan foydalanish tavsiya etiladi: “Aqliy hujum”, “klaster” va “charxpalak” texnologiyasi.

Mavzuni o'zlashtirishda “klaster” usulidan unumli foydalanishimiz mumkin. Masalan, o'quvchilarga Afrika mavzusi avvalgi darsda o'tilgan. Ushbu mavzuni “klaster” orqali quyidagicha mustahkamlashimiz mumkin.

1. Doskaga ma'lum bir shakl chizilib, unga mavzu nomi yoziladi.

2. So'ngra mavzu nomidan kelib chiqqan holda o'quvchilarlar tomonidan fikrlar rivojlantiriladi. Afrika materigi alohida doiralarga yoziladi.

3. So'ngra Afrika materigi alohida tarmoq bo'yicha yangi doirachalarda aks ettiriladi.

4. Jarayon fikrlar yakuniga yetgunga qadar davom etadi.

“Klaster” usulining afzalliklari: ma'lumotlar xaritasini tuzish omili, bilimlar faollashuvini ta'minlaydi, mavzu bo'yicha fikrlash jarayonida yangicha g'oya taqdim etishga, shuningdek mavzuga ochiq va erkin kirib borishga yordam beradi.

“Toifali jadval” usulining afzalliklari: ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi, tizimli mushohada qilishni, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2.3. Geografiya darslarida interfaol metodlari asosida seminarlarni tashkil etish

Metodik xizmatni tashkil etishda seminar – o'qishlarda, trening mashg'ulotlaridan unumli foydalanish o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda. Ularni tashkil etish turlari, bosqichlari,

e'tibortalab tomonlari juda ko'p. Jumladan, seminar dasturini ishlab chiqishdan avval bir necha g'oyalarni belgilash hamda muammolarni aniqlash uning asosiy mazmunini tashkil etadi.

1. Seminarni o'tkazish vaqti.
2. Seminarni o'tkazish joyi.
3. Seminarni kim o'tkazadi?
4. Seminar o'tkazish uchun qancha vaqt talab qilinadi?

Seminar – o'qish jarayonini oldindan loyihalashtirishda bu jarayon mavzusining o'ziga xosligi, joy va sharoiti, qatnashchilarning imkoniyati va ehtiyoji hamda hamkorlikdagi faolligini tashkil eta olish hisobga olinishi kerak. SHunda kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Bunda har bir seminar – o'qish texnologiyasiga reja tuzib olish maqsadga muvofiq .

1 – jadval

Mavzu: Maqsad va vazifalar. Mashg'ulot jarayonining mazmuni	Fanlararo integratsiya O'qitish samaradorligini oshirish O'quv jarayonida fanlararo integratsiya mazmuni yoritiladi
Mashg'ulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metodlar: Og'zaki bayon qilish qilish, suhbat, munozara, bahs
SHakli	Amaliy, kichik guruhda ishlash, jamoada ishlash
Vositalar:	Tarqatma materiallar, texnika vositalari
Usul	Nazorat, o'z – o'zini nazorat, og'zaki nazorat
Baholash	Rag'batlantirish
Kutiladigan natija	Trener uchun: yangilikni yetkazish Ishtirokchi uchun: yangilikni o'zlashtirish

Natijalar:

O'tkazilayotgan seminar – o'qishda ishtirokchilar qanday natijaga erishishlari lozim? Ularni aniq bir vazifaga yo'naltirilganligining uch turi mavjud:

1. Mazmunga qarashli natijalar.
2. Metodlarning o'tishiga qarashli natijalar.
3. Seminar – o'qishda o'tkazish tartibiga tegishli natijalar.

Metodlar

Qatnashchilarni kutilayotgan natijaga erishishlari uchun yordam beradigan usullar. «Aqliy hujum», «Klaster», «Bumarang texnologiyasi», «Skarabey texnologiyasi», FSMU texnologiyasi, VEER texnologiyasi, Blits o'yini.

Izyuminka (diqqatni jalb etish) – bu ishtirokchilarni o'quv mashg'ulotning mazmuni yoki uslubiga qiziqishini oshiradigan, tahlilga tortadigan savollar.

Ma'ruza

Ma'ruza – o'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli.

Odatda bu usul video ko'rgazma namoyish qilish bilan qo'shib olib boriladi. ma'ruza – katta hajmdagi o'quv materialiga nisbatan uzoq vaqt davomida monolog bayon etish. Bu usulning asosiy vazifasi – ta'lim berish, o'rgatish.

Ushbu usulning samaradorligi quyidagilarga asoslanadi:

1. Ma'ruza qilishda uning mazmunining chuqur ilmiy – g'oyaviy ketma – ket bo'lishi.
2. Tushunarli, hissiyotga boy va sodda tilda yoritilishi:

- yosh va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda qisqa savol – javob bilan o'tkazishga e'tibor qaratish zarur.

- reja tuzish va har bir reja bayonidan so'ng xulosalash.

- muammoli bayon qilish.

- yozib olish, zarur bo'lgan joylarni ajratib ko'rsatish.

Tayyorgarlik ko'rish uchun:

1. Mavzu, maqsad va dolzarb muammolarni aniqlash.
2. Adabiyotlar bilan tanishish.

3. Qatnashchilarning salohiyati, bilim darajasi, qiziqishi, psixologiyasini hisobga olgan holda reja tuzish.

4. Jihozlar, ta'lim vositalarini tashkil etish.

Ma'ruza – kirish, bayon, xulosadan iborat bo'lishi kerak.

Tinglovchilarning qiziqtirish uchun kirish qismiga puxta tayyorlanish lozim. Ma'ruzaning kirish qismi paytida tinglovchilar tomonidan olinadigandastlabki ma'lumot miyani ma'ruza davomida beriladigan axborotni qabul qilib olish va qayta ishlab chiqishga tayyorlaydi. Ma'ruzachi bildiradigan barcha fikrlar ishtirokchi tomonidan faqat o'zlashtirilib qolmay, balki yana ijodiy tarzda qayta ishlanishi hamda o'z qarashi bo'lib qolishi kerak.

Bayon ikki – uch qismdan iborat bo'ladi. Yakuniy qism esa belgilangan mavzu yuzasidan qisqa xulosalar yoki g'oyasini ta'riflab berishga qaratiladi.

Seminar treningda kuyidagi ma'ruza turlaridan foydalanish mumkin:

1. Muammoli ma'ruza.
2. Ma'ruza – konferentsiya.
3. Konspektsiz ma'ruza.
4. Muallifli ma'ruza.
5. Ma'ruza – munozara.
6. Aniq vaziyatni tahlil qilish ma'ruzalari.

Ma'ruzada savol berib, tinglovchilarning javoblaridan foydalanib, vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat etib, kundalik hayotdan misol keltirib, ularni savol berishga undab, ilgari o'rgangan fakt va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslash ishlari amalga oshirilsa, ma'ruzalar samarali bo'ladi.

Davra suhbat

Suhbat – o'qitish va o'qishning dialogik, savol – javob usuli.

2 – jadval

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyati
1 bosqich – Tayyorlov	Suhbat mavzusi, maqsadi va vazifalarini belgilaydi. Asosiy va yordamchi savollarni aniqlaydi. Savollar berish, umumlashtirish, xulosa chiqarish tartibini aniqlash.
2 bosqich – Suhbatga kirish	Mavzu, maqsad va vazifa e'lon qilinadi. Mavzu bo'yicha egallagan bilim va mahorati eslatiladi.
3 bosqich – Suhbat	Qatnashchilarning mulohazalarini umumlashtiradi va to'ldiradi. Hammani faol qatnashishga harakat qiladi. To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'rilarni sharhlaydi. Yoki noto'g'rilarni boshqalar bilan to'g'rilaydi.
4 bosqich. Xulosa	Suhbat natijasini umumlashtiradi, yo'naltiruvchi savollar bilan suhbat natijalarini yig'ib oladi.
5 bosqich – Yakunlash.	Yakun yasaydi, tahlil qiladi.

Bu usulning etakchi funktsiyasi – motivatsiya qilish: aniq ko'zda tutilgan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida belgilangan mavzu bo'yicha esga olishga va bayon etishga hamda muhokama qilishga undaydi. Ta'lim oluvchilar, trener bilan birga, qadamma – qadam yangi bilimlarni mustaqil fikirlash, xulosa chiqarish va umulashtirish yo'li bilan o'zlashtiradilar.

Suhbatlar belgilangan maqsad asosida quyidagilardan tashkil topadi:

1. Tashkil qilish (tinglovchilarni ishlashga tayyorlash).
2. yangi bilimlardan xabardor qilish (yangi materiallar bilan tanishtirish).
3. Sintezlovchi (ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, eslab qolish va anglash).

Suhbatlar erkin vaziyatda olib borilib, savollarni aniq ifoda etish va berish muhimdir. Ular o'zaro mantiqiy bog'liq bo'lishi, o'rganilayotgan narsaning tub ma'nosini ochib berishi, bilimni tartibli ravishda o'zlashtirishga imkon berishi lozim. Savollar o'z ma'nosi va shakli bilan qatnashchilarning rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak. Suhbat o'tkazishning texnologik kartasi (2 – jadvalga qarang) Suhbatda savol berish muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun savol berishda har bir savolni barcha guruhga berish, uzun va qo'shaloq savollar bermaslik. Agar savolga hech kim javob bermasa, savolnio'zgacha tuzish lozim.

Suhbatga tayyorgarlik ishlari:

1. Suhbat mavzusini aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash.
2. Hamkorlikka oid tushunchalar mohiyatini ochishga yordam beradigan savolalar tizimini ma'lum tartibda ishlab chiqish.
3. Suhbatga kirish va yakunlovchi qismlar mazmunini ifodalash.
4. Suhbat mazmunini tinglovchilar faoliyati, xulq – atvori bilan bog'lashning to'g'ri yo'lini belgilash.

5. Suhbatning mavzu va maqsadi, o'tkazilish vaqti haqida tinglovchilarni oldindan ogoh qilish.
6. Tinglovchilarga mavzuga oid tushunchalarni boyitishga yordam beradigan adabiyotlarni tavsiya qilish.

Kichik guruhlarda ishlash.

Kichik guruhda ishlash asosida qatnashchi o'z fikrini chiqish, uni guruhda muhokama qilish va har xil fikrlar asosida mushtarak nazarga kelishga o'rganadi.

Guruhlar bilan ishlash usullari:

- Guruhlarga xohishlari bo'yicha yoki hisoblash, o'yinlar tarzida ajratish mumkin.
- Guruhlar bilan ishlash uchun topshiriqlar tanlashda muammoli bo'lishiga erishish.
- Vaqit aniq belgilanib, topshiriqlarni bajarishga doir yo'riqnoma berilishi kerak.

3 – jadval

Ish bosqichlari	Trener faoliyati	Ishtirokchi faoliyati
I bosqich Tayyorlov.	Loyihaning maqsad va mavzu ro'yxati aniqlanadi. Bir necha mavzu taklif etiladi. Loyiha mavzuni haqida gapiriladi. Ish tartibi va baholash mezonlari haqida ma'lumot beriladi.	Guruhlarda loyiha mavzusini muhokama qiladilar. Maqsadlarni belgilaydilar, ishlash yo'llarini kelishib oladilar.
II bosqich Rejalashtirish	G'oyalar taklif etiladi. Ma'lumot manbalarini, uni yg'ish va tahlil qilishni tavsiya etadilar. Baholash mezonlarini belgilaydi.	Ish rejasini tuzadilar, vazifalarini aniqlaydilar va guruh a'zolari orasida taqsimlaydilar.
III bosqich Tadqiq qilish	Ma'lumot manbalarini qidirishga yordam beradi, maslahat beradi.	Ma'lumot yig'adilar, vazifalarni yechadilar.
IV bosqich maxlumotlarni tahlil qilish	Bueun jarayonni muvofiqlashtiradi, orqaga qaytuchi aloqani qo'llaydi.	Olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, yakunlaydi.
V bosqich Hisobot	Eshitadi, sifatini aniqlaydi.	Hisobot beradilar.

- Taqdimot o'tkaziladi. Taqdimot yuzasidan munozara o'tkaziladi, yakunlanadi.

Loyihalar usuli

Loyihalar usuli bilim va malakalarni tahlil qilish, baholash amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi.

Loyihalar usulini texnologik kartasi. (3 – jadvalga qarang)

DTS, dastur va darslik bilan ishlash yo'llari

DTS ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydi. **DTS** talablarini bajarish majburiy. **DTS** da ta'lim mazmuni, shakillari, vositalar usullari va ularning sifatini baholash tartibi belgilanadi.

DTS mohiyatiga ko'ra dastur, darslik, o'quv qo'llanma va boshqa me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

1999 yil 16 avgust Vazirlar Mahkamasining 390 – sonli qarori bilan tasdiqlangan **DTS** larini 1999 – 2000 o'quv yilidan boshlab bosqiyama – bosqich amaliyotga joriy etish boshlangan edi. 2004 yil XTVning 198 – sonli buyrug'i asosida takomillashtirilgan **DTS** tajriba – sinovdan o'tkazildi va 2005 – 2006 o'quv yilidan boshlab bosqichma – bosqich o'quv jarayoniga tatbiq etiladi. SHuning uchun har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha sinflar kesimida **DTS** talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilar bilimni chorakma – chorak nazorat qilish, atroflicha nazorat turlarini belgilash, test savollarini tuzish, sinov natijalarini tahlil qilish, o'quvchini o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va kelgusida mazkur kamchiliklarga yo'l quymaslik choralarini ko'rish zarur. **DTS** bilan ishlashda birinchi navbatda sinflar kesimida o'quvchining egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining minimal darajasini belgilab olish lozim.

Dastur Davlat hujjati bo'lib, **DTS** va o'quv rejasiga asosan tuziladi. Dasturda fanning maqsadi, mazmuni ham bilim hajmi aks ettiriladi. SHuningdek, har bir sinfda fan bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi belgilab beriladi:

1. Dastur tushuntirish xatidan boshlanib, unda materiallarni o'rganish xususiyatlari, maqsad va vazifalar, shuningdek, o'qitish vositalari va materiallariga oid tavsiyalar beriladi.

4 – jadval

Kitob bilan ishlash texnologiya xaritasi

Ish bosqichi	O'qituchi faoliyati
1 bosqich – Tayyorlov	Tinglovchilar mustaqil o'rganishlari uchun o'quv materialini tanlaydi. O'quv faoliyati maqsad va vazifasi, natijalari va uni baholash mezonini shakllantiradi.
2 bosqich – Mavzuga kirish	Tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu bilan tanishtirish maqsadida ilgari o'rganilgan qasi material bilan yangisini taqqoslash va bog'lash zarurligi haqida batafsil suhbatlashadi. Yangi materiallarning asosiy savollariga ahamiyat beradi. Mustaqil ishning tartibi va vazifalarini belgilaydi.
3 bosqich – Kitob ustida ishlash	Baholash mezonini e'lon qiladi. Kuzatadi va individual yordam beradi.
4 bosqich – Yakunlash	O'rganilgan materialni o'zlashtirish sifatini tekshiradi, tahlil qiladi va natijalarni baholaydi.

2. Dasturning asosiy qismida o'quv fanining asosiy mazmuni, o'rganiladigan nazariy – amaliy materiallar, mavzular bo'yicha o'rganiladigan bilimlar ko'lamini va o'quvchilarda hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar majmui ko'rsatiladi.

3. Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

Dastur asosida ishning rejasini tuzishdan avval quyidagilarga asoslangan holda tahlil qilinadi.

1. Mavzular ketma – ketligini ta'minlash.

2. Fan nazariyasining eng muhim faqitlari va tushunchalari.

3. O'quvchilar eslab qolishi kerak bo'lgan ma'lumotlar.

Darslik o'quv jarayonining asosi. Darslik – o'quvchining uydagi muallimi.

Darslikdagi materiallarni tezroq, to'laroq va chuqurroq egallab olishlari uchun zaruriy materiallar:

1. Majmualar, mashqlar to'plami, o'qish kitoblari tavsiya etiladi.

2. Illyustrativ materiallar, rasmlar, diagrammalar, atlaslar, plakatlar.

3. Ko'nikma va malaka hosil qilish uchun daftarlar, topshiriq kartochkalari.

4. ma'nosini tushunish uchun lug'at.

Darslikda fikrlar lo'nda ifodalanadi. Eslab qolish talab etiladigan asosiy o'rinlarda shriftlar ajratiladi yoki ramka ichiga olinadi.

Darslik bilan ishlash usuli barcha funktsiyalarni bajaradi: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, asoslash. O'quvchini kitob ishlashga o'rgatish vazifasini qo'yishdan avval undakitob bilan ishlash malakasini shakllantirish lozim.

1. O'quv texnikasini o'zlashtirib olgandan so'ng, ular mustaqil o'qishga o'rgatiladi:

- uning tuzilishi bilan tanishish;

- ko'z yugurtirib chiqish;

- alohida boblarni o'qish;

- savollarga javob qidirish;

- materialni o'rganish;

- qiqacha bayon tuzish;

- vazifa va mashqlarni yechish;

- materiallarni xotirada saqlab qolish.

Bunda:

1. Materiallarni e'tibor bilan o'qib chiqish, uni bo'limlarga (qismlarga) bo'lish va o'qigan qisimning rejasini tuzish.

2. Savollarga og'zaki javoblar berish.

3. O'qigan mavzu bo'yicha o'z misollarini keltira olish.

4. O'qigan matn yuzasidan o'z xulosasini chiqara olish.

Darslik bilan ishlash:

Pedagogning asosiy vazifasi o'quvchilar oldiga o'quv vazifasini qo'yish, faoliyatini tashkil etish hamda ularni kitob bilan ishlashning xilma – xil turlariga o'rgatishdan iborat.

Vazifalar:

1. Materiallar bilan tanishtirish.

2. O'qib, so'zlab berish.

3. Muallifning asosiy fikrlarini ajratib ko'rsatish.

4. Qandaydir alohida misolni keltira olish.

5. Asarni tahlil qilish.

Buning uchun:

1. O'qiganda reja tuzish lozim.
2. Konspekt olish, mohiyatini qisqacha yoza olish zarur.
3. Ko'rsatkichlar (tsitata)ni yozib olishi kerak.
4. tezislar tuzish – ishning asosiy yo'nalishlarini qisqa va qat'iy shaklda yozib olish lozim.
5. Taqriz yozish.
6. Mazmuniga qisqacha ta'rif – annotatsiya yozish kerak.

2.4. Geografiya darslarida test texnologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quvchilarni test usulida qabul qilish to'g'risida»gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro'yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog'lanish mavjud: testlarni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

Testshunoslik batafsil bayon etilishi zarur bo'lgan alohida soha ekanligi va shu bilan birga test topshiriqlari pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalangan tashhislanuvchi o'quv jarayonini amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini ham e'tiborga olib, bu bo'limda testshunoslik tarixi (J. Fisher, F. Gamelton, CH. Grim, CH. Rassel), test usulining afzalliklari, test shakllari va ularni tuzishga oid didaktik talablar haqida ixcham ma'lumot beriladi.

1. Test shakllari va ulardan foydalanish.

Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari

Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya

fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog e. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik uslublar ham qo'llashni taqozo qildi. Bunday uslublar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda ta'sirga javob berish vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

O'quvchilar bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruxlarga ajratishga ham urinib ko'rilgan. CH.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsivalarni berdi [6]:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;
- talabalarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;

• test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'riligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;

• topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

CH.Rassel test sinovlarining natijalarini o'rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi to'g'risidagi savolga javob berishga erishdi. Rasselning fikricha, test sinovlarining maqsadi talabalarning bilimlarini baholash yoki ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi va testlarni quyidagi xollarda: qaysi materialdan boshlab o'rganish zarurligini ta'minlashda; talabalarni guruhlariga taqsimlashda; o'qitish jarayonida sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni oldindan aniqlashda; shuningdek, mamlakatning turli hududlaridagi o'quv yurtlarida muayyan yosh davridagi yoshdagi talabalarning yutuqlarini taqqoslashda qo'llash mumkin.

SHuni ta'kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assotsiatsiyasining test sinovi o'tkazmasdan ta'lim berish mantiqsizlikdir, faqat testni qo'llash natijasidagina nazoratdan ta'limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va so'ngra qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin, degan fikrlari ma'lumdir. Frantsiya parlamenti 1989 yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda xususan, talabalar bilimini xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992 yildan boshlab Frantsiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. SHunisi qiziqki, Frantsiya to'qson yillik test an'analariga ega bo'lgan davlatdir.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida Pitterburgdagi Karnegi-Melon universitetining bir guruh sotsial-psixologlari AQSHda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi o'quv yurtlaridagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi. Bu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: test sinovi Amerika hayotida chuqur ildiz otgan, hech kim Amerika maktablarida turli xildagi standartlashtirilgan test bo'yicha sinovdan o'tmasdan, boshqacha yo'l bilan bilim olishni davom ettira olmaydi, ishga joylashish, keyinchalik esa yuqori lavozimga ko'tarilish yoki malaka oshirish test bilan chambarchas bog'lanib ketganligi alohida qayd qilindi. Tadqiqotda amerikaliklarni testlarga bu qadar moyilliklarining uchta sabablari keltirildi:

- a) inson omilidan imkon boricha samarali tarzda xizmat manfaatlari nuqtai nazaridan foydalanish;
- b) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar iste'dodlarni taqdirlashga intilish;
- v) amerikaliklarni milliy ta'lim standartlarni joriy etish uchun intilishlari.

Inson erishgan yutuqlarni xolisona baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorini vujudga keltirdi.

AQSHda to'rt yuzdan ortiq markaz o'zaro raqobat ostida turli-tuman testlarni ishlab chiqmoqdalar. SHuningdek, testlarni tuzish va ularni qo'llash bo'yicha yaxshi mutaxassisliklar yuqori darajada qadr topganlar. 1992 yilda ular AQSHdagi eng nufuzli 20 ta faoliyat yo'nalishlari ro'yxatida 8-o'rinni egallaganlar. O'ta qadrlanadigan tizimlar bo'yicha tahlil, marketing, sog'liqni saqlash, ekologiya, oziq-ovqat maxsulotlarini taqsimlash va komp'yuter texnologiyasi ixtisosliklari esa, tegishli tarzda 15-20-o'rinlarga joylashtirilgan.

Sobiq Ittifoq davrida testlarga asoslangan fan pedagogiya deb yuritildi va testlardan foydalanishning dastlabki davrida jiddiy xatoliklarga hamda buzilishlarga yo'l qo'yildi. 1936 yildagi VKP(b) MKning «Xalq maorif komissarligi tizimidagi pedagogik buzilishlar to'g'risida»gi qarorida testlar «burjua» pedagogikasiga xos deb hisoblandi. Bu qaror fanni mafkuraviylashtirishga va uni majburan siyosiyashtirishga qaratilgan bo'lib, unda jahon psixologiyasi va pedagogikasi tajribasidan foydalanish inkor qilingan edi. Bu qarorga binoan, 1936 yildan testshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davlat miqyosida to'xtatildi. Pedagogiyaning «idealistik va mexanistik» ko'rsatmalari, ularni «ilmiy asoslanmagan» «test»larga berilib ketganligi qoralandi. Pedagogiyani soxta fan sifatida qoralash jarayonida sovet pedagoglari va psixologlarining talabalar bilim-ko'nikmalarini baholashga qaratilgan ijobiy yutuqlari ham inkor etildi. SHuning uchun test sinovlari muammosi pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda uzoq vaqt aks ettirilmadi. YUqorida ta'kidlaganidek, mustaqil O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, 1993 yildan testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berildi. Pedagogik testlar keng miqyosda, dastlab o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanila boshlandi. Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, o'lchovlar nazariyasi, matematik statistika, matematika, axborot nazariyasi; kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. SHuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida etirof etilmoqda. edagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan

muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. SHuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me'yor bo'lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileti o'zida nazorat qilinadigan o'quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);
- hamma o'quvchilar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;
- o'quvchilar bilimiga haqqoniy baho berish mezonini oshadi;
- test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida, o'quvchilar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi (reyting);
- o'qituvchi o'quvchilar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;
- boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lchashga sharoit yaratiladi;
- test nazorati komp'terlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda, test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o'qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQSHda munosib baholangan. Abiturient (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llash bo'yicha AQSH tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan.

Sifatli test topshiriqlarini tuzishning qiyinligi, testni keng joriy etishni murakkablashtiradi. Bu ish yuqori pedagogik malaka va tajriba talab etadi. SHuning uchun ham, AQSHda testning yuqori sifatini ta'minlash uchun pedagogik testlashning maxsus xizmati (PTX) tashkil kilingan [2; 3.] Bu tashkilot test o'tkazish amaliyotini umumlashtirish va ommalashtirish, standartlashtirilgan testlar yaratish, test o'tkazishning yagona qoidalari va test ishlab chiqish usullarini takomillashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogik testlash xizmati (PTX) Prinston universitetida joylashgan, unda 2300 nafar kishi, shu jumladan, 250 nafar falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistik va psixologik uslublar, kasb tanlash bo'yicha fan doktorlari, shuningdek, turli fanlar bo'yicha fan doktorlari, 200 nafar magistr, har xil fanlar bo'yicha o'qituvchilar xizmat qiladi. Testlar EHMda ishlanadi va sinaladi. Mamlakatda pedagogik testlash xizmatiga bo'ysunadigan 5000 test shaxobchalari mavjud. Test o'tkazish uchun Prinston markazi 53 ishonchli shaxslarga (odatda test o'tkaziladigan o'quv yurtlari pedagoglariga) test materiallari va test o'tkazish bo'yicha yo'llanmalar yuboradi.

Bu misoldan ma'lumki, testlashni samarali o'tkazish pedagogik testlarning maxsus rivojlangan xizmati, keng quloq yoyilgan tarmoq punktlari, testlar bo'yicha nazariya va amaliyotni o'zida aks ettiradigan katta hajmdagi adabiyotlar mavjudligiga bog'liq.

Test turlari va test topshiriqlari shakllari
--

Agar testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruxga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Fanning mazmunidan kelib chiqqan holda biz faqat pedagogik test haqida to'xtalamiz. Adabiyotlarda bunday test topshiriqlarining quyidagi shakllari bayon etiladi [2; 3]:

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zaro bog'liqlikni (muvofiqlikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlari;
- sonni to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash talab qilinadi;

- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar echishga qaratilgan (matematik, fizik va b.) topshiriqlar;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga oid topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

Mutaxassislik (umumtexnik) fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri javobli), ochiq, muvofiqlikni va to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir [2].

Ochiq topshiriqlar. Agar test topshirig'i matnida, uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi.

Bu shakldagi testlarda o'quvchilarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak. Blankaning bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lgan joy qoldiriladi.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshirig'i tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda EHMga kiritiladi.

1. Bilimlarni test bilan nazorat qilish adolatliligi an'anaviy shakllar bilan taqqoslanganda:

A) ortadi. B) pasayadi.

2. Bilimlarni har qanday vaqt oraligida oshishiga baho berish imkonini beradigan nazorat turi:

A) odatdagi

B) testli.

«Ha» va «yo'q» degan ikkita javobli yopiq test topshiriqlari ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ba'zi bir topshiriqlar ularning javoblari ikki xil ma'noni bildiradigan qilib bayon etilishi mumkin. Masalan: Siz testlar qo'llanishini xush ko'rasizmi? - Ha (xush ko'raman). Yo'q (xush ko'rmayman). Bunday hollarda javoblar uchun «to'g'ri» va «noto'g'ri» so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Yopiq test topshiriqlari bilimlarni komp'yuterdan foydalanib nazorat qilishga qulay.

A) To'g'ri.

B) Noto'g'ri.

Ikkita javobi bo'lgan yopiq shakldagi topshiriqlar qo'llanishning asosiy vazifasi - shu fandan sinovdan o'tuvchining birinchi test topshiriqlaridayoq bilim darajasini tezda tekshirib ko'rishdan iborat. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida (AO'T) bunday topshiriqlar boshlang'ich bosqichning o'zidayoq talabning umumiy tayyorgarligini taxminiy baholash va o'qitishning keyingi yo'nalishini - murakkab yoki osonlashtirilgan dastur bo'yicha olib borish masalasini hal qilishga imkon beradi.

Test topshirig'ida javoblar qancha ko'p bo'lsa, to'g'ri javobni tasodifan topish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Amaliyotda beshta javobi bo'lgan topshiriqlarga ega bo'lish etarli hisoblanadi (bu holda bitta topshiriqqa to'g'ri javob berish ehtimoli 0,2 ni tashkil etadi.)Javobi beshta bo'lgan test topshiriqlariga quyidagi misolni keltirish mumkin.

«To'rtinchi o'lchov» degan fizika-matematika atamasi qaysi tushunchaga taalluqli:

A) Og'irlikka.

B) Hajmga.

V) Vaqtga.

G) Tezlikka

D)Tezlanishga. To'g'ri javob: V.

Bu topshiriqni latent, ya'ni yashirin ma'noli topshiriqlar qatoriga kiritish mumkin. To'rtinchi o'lchov - ehtimollik nazariyasida qo'llaniladigan tushunchadir. SHuning uchun to'g'ri javob bergan

sinovdan o'tuvchini bu nazariyaning "hammabop bayonidan xabardor" deb taxmin qilish mumkin. YOpiq topshiriqlarda to'g'ri javoblar bir nechta yoki, javoblarning hammasi ham to'g'ri bo'lishi mumkin.

Masalan: Pedagogik innovatsiyani xarakterlovchi belgilarini ko'rsating.

A. Pedagogik tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan barcha o'zgarishlar.

B. O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish uchun kiritilgan yangilik.

V. Pedagogik tizimning ayrim qismlarini yuqori samara beruvchi boshqa qismlar bilan almashtirish.

G. Pedagogik tizimning ichki imkoniyatlarini ishga solish va yuqoriroq natijaga erishish.

D. Hamma javoblar to'g'ri.

To'g'ri javob: D.

O'zaro bog'langan qisqa yopiq topshiriqlar zanjirchasi bilimlarning har qanday murakkab o'quv materialini o'zlashtirish sifatini tekshirishga imkon beradi. YOpiq testlarni ishlab chiqishda noto'g'ri, biroq to'g'riga o'xshab ko'ringan javoblarni ta'riflash asosiy qiyinchilikni tashkil qiladi. Agar ular muvaffaqiyatsiz tuzilgan bo'lsa, to'g'ri javob ular orasida ajralib turadi va hatto yaxshi bilmaydigan talaba ham uni osonlikcha topishi mumkin. Bu holda topshiriq o'zining tekshiruvchi funktsiyasini yo'qotadi. Topshiriq yaroqli bo'lishi uchun hamma javoblar talabani o'ziga jalb etadigan bo'lishi zarur. SHundagina test muvaffaqiyatli tuzilgan deb hisoblanadi. Har bir noto'g'ri javobning o'ziga jalb etadigan tomoni, shu javobni tanlangan talablarning salmog'i bilan belgilanadi. Bu ulush nechog'li yuqori bo'lsa, mazkur javob yaxshi ta'riflangan bo'ladi. Agar talabalar yaqqol noto'g'ri javobni to'g'ri javob sifatida tanlasalar, bunday javobni almashtirish lozim.

2. Test topshiriqlarini tuzish uslubi

Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar
--

Tuzilgan test topshiriqlarining hammasini ham birdek qo'llashga yaroqli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilish zarur [4].

Bular quyidagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o'quv maqsadiga muvofiqligi; materialning ahamiyatlilikligi; ilmiy aniqlik; izchillik; to'kislik va uyg'unlik; o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashganligi; samaradorlik (kumulyativlik); til ravonligi va aniqligi; bir ma'nolilik; vaqtning qat'iy belgilanishi; ixchamlik; murakkablik me'yori; to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarining mavjud emasligi; variativlik; shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

Endi mazkur o'quvchilarni birma-bir qisqacha ko'rib chiqaylik.

1. O'quv maqsadiga muvofiqligi. Test topshiriqlarining mazmuni aniqlashtirilgan (identifikatsiyalangan) o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lishi lozim. O'quv maqsadlari majmui Blum taksonomiyasi bo'yicha ierarxik tuzilishiga ega. SHuning uchun nisbatan yaqin maqsadni amalga oshirmay turib, umumiy (nisbatan olis) maqsadga erishib bo'lmaydi. Har bir test savoli ma'lum bir o'quv maqsadining ro'yogba chiqishini ta'minlashi zarur.

2. Materialning ahamiyatlilikligi. Test savollariga o'quv materialining eng muhim, asosiy qismlarini kiritish lozim. Testda topshiriqlar soni, odatda, cheklangan bo'ladi. Binobarin, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilayotgan masalada barcha mavzular to'liq qamrab olinmagan bo'lishi mumkin. Talabanning umumiy holatdan xususiy xulosaga kelishi (deduktiv) va aksincha, ayrim dalillardan umumiy xulosalar (induktiv) chiqara olishi, uning nazariy qoidalarni alohida holatlarda qo'llashni nechog'lik o'zlashtirib olganini, tafsilotlarni bilishi esa nazariy asoslarni tushuntira olish qobiliyatlarini ko'rsatadi.

3. Ilmiy aniqlik. Testga mushohada, bilim orqali asoslash mumkin bo'lgan haqqoniy ma'lumotlar kiritiladi. Fandagi munozarali qarashlarni test savollariga kiritish tavsiya etilmaydi. Test topshiriqlari tabiati, avvaldan ma'lum, aniq javob berishni taqozo etadi.

4. Izchillik. Testdagi topshiriqlar ma'lum bir fanga taaluqli, umumiy bilim mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. Izchillik ayni bir topshiriq javobini umumiy test natijalariga nisbatan munosabatida (korrelyativ) ko'rinadi.

5. To'kislik va uyg'unlik. Testdagi topshiriqlarning umumiy soni mavzu va qismlarga nisbatan muvofiq taqsimlanishi ahamiyatli. Bu talab test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

6. O'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalanganligi. O'quv materialining ma'lum bir tarkibiy qismiga oid o'zlashtirish darajasi turlicha (bilish, eslab qolganini tasvirlash, samarador bilimlar va ijodiy fikrlash) bo'lgan test topshiriqlarini tuzish lozim. Bu talab ham test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

Bilish darajasidagi test topshiriqlari avval o'zlashtirib olingan ma'lumotlarni qayta tiklashga asoslanadi. Bunda xotira quvvati katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Reproduktiv darajadagi testlarda esa, talaba oldin o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikrlaydi, topshiriq bajarganda esa, fanda avvaldan ma'lum bo'lgan qoida va algoritmlarga (yo'llanmalarga) suyanadi. Bunday holda u, esda qolganni tasvirlash, qayta tiklash yo'lidan boradi.

Samarador mustahkam bilimlar va ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlari esa sinalayotgan shaxsning ma'lum umumiy uslublarni topshiriqda ko'rsatilgan aniq shart-sharoitlarga mustaqil qo'llash layoqatini sinaydi. Samarador bilimlar va ijodiy fikrlash faoliyati tayyor qoidalar va algoritmlar asosida emas, ma'lum qoidalarga ko'ra yaratilgan yoki yangi sharoitdagi faoliyat jarayonida qayta yaratilgan qoidalarga binoan amalga oshiriladi.

Ijodiy fikrlash darajasiga oid tuzilgan testlarda topshiriq umumiy holda bayon etiladi, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlar va vaziyatlarni talaba ijodiy fikrlash natijasida aniqlaydi. Bunday test topshiriqlarni echish jarayonida butunlay yangi axborot (qoida, xulosa, shakl va h.k.) yaratiladi.

7. Samaradorlik (kumulyativlik). Samaradorlik test topshiriqlarining borgan sari murakkablashib borishini nazarda tutadi. Bu qat'iy talab emas. Chunki zamonaviy komp'yuter test tizimida talabaga navbatdagi test topshirig'i, avvalgisini qanday echganiga qarab beriladi. YA ni avvalgi savolga noto'g'ri javobdan so'ng unga nisbatan murakkab bo'lmagan test topshiriqlari berilishi mumkin.

8. Vaqtning qat'iy belgilanganligi. Bu shartning mohiyati shundan iboratki, o'ylash uchun 2 daqiqadan ortiq vaqt talab etiladigan test savollari bo'lmasligi lozim. Birqancha xorijiy test topshiriqlarini tahlil etilganda, matematika bo'yicha 65 sekund, til va adabiyot bo'yicha 32 sekund, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha 41 sekund, dalillar va iboralar uchun 20-25 sekund, chizmalar uchun 90 sekund, shakllarni aniqlash uchun 90-120 sekund vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq deb topilgan.

9. Ixchamlik. Test topshiriqlarining matni cho'zilib ketmasligi, qalashtirib tashlanmasligi lozim. Murakkab ko'lamli o'quv savolini o'zlashtirishni aniqlash zarur bo'lgan hollarda, uni bir qancha ixcham test topshiriqlariga bo'lib tuzilgani ma'qul.

10. Til ravonligi, aniqligi va bir ma'noliligi. Test topshiriqlarida ko'p ma'nolilik va noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. AQSHda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruhiga muayyan bir o'quv fani bo'yicha tajribali pedagog va ruhshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an'anaga aylangan.

11. Murakkablik me'yori (yaroqliligi). Test topshiriqlari pedagogik jihatdan samarali bo'lishi uchun ular oddiy axborot berib qolmasligi, javobi ochiqdan-ochiq ayon bo'lmasligi lozim. Natijasi yarmiga teng ($P_{q0,5}$) bo'lgan test topshiriqlari nisbatan samarali hisoblanadi. Bunday natija o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan yoki chuqur tayyorgarlik ko'rmagan talabani aniqlashni osonlashtiradi. SHuning uchun ham abituriyentlarni tanlash, bitiruv imtihonlari kabi muhim tadbirlar uchun test topshiriqlari o'quv dasturini to'liq o'rgangan talabalarning 50 foizi bajara olishi mumkin bo'lgan darajada tayyorlanadi. Demak, ma'lum bir yo'nalishdagi testlar uchun 50 foizlik natija yaxshi ko'rsatkichdir. SHuni unutmaslik kerakki, o'z sinfi uchun muallimlar tomonidan tayyorlangan test topshiriqlari boshqacharoq mezon bilan baholanadi. Bunda 50 emas, balki 85 foiz ko'rsatkich maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu haqda oldingi mavzuda bayon etilgan.

12. To'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud bo'lmasligi. Test tuzishda tajribasiz kishi tushunarli bo'lsin, degan maqsadda to'g'ri javobni boshqa javoblarga nisbatan kengroq va batafsilroq bayon qiladi. Talabalar bu farqni tez anglab oladilar va javobni ana shu belgiga qarab aniqlashadi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

13. Variativlik. O'quv materialidagi ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishni nazorat qilish uchun mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari yoki murakkablik darajasiga ko'ra turlicha bo'lgan, lekin bitta o'quv materialiga tegishli test savollari tuzish mumkin. Bu bir o'quv maqsadiga erishish yo'lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar). SHu bois komp'yuter test tizimi topshiriqlarning variativlik xususiyatiga asoslangan. Bunda komp'yuter navbatlagi topshiriqni avvalgi savolga berilgan javobga ko'ra tanlaydi.

14. SHaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik. Bu talab falsafadan, uning qoidalarini san'at asarlarini o'rganishga qiyoslashdan olingan. Gegel fikricha, haqiqiy san'at asari shaklan va mazmunan yaxlit asardir. Binobarin, test topshiriqlari ham shaklan va mazmunan uyg'un bo'lishi lozim. Test topshiriqlarini yuqoridagi talablar asosida tuzish, o'qituvchilarning test tuzish nazariyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlarini talab qiladi. Buning uchun testshunoslik kurslarida o'qish va tegishli adabiyotlarni mustaqil o'zlashtirib borish zarur.

Test topshiriqlari tuzishga oid yuqoridagi talablarga rioya qilish, ularning talabalar bilimini haqqoniy va aniq o'ldash xususiyatlarini ta'minlaydi. Buning uchun test topshiriqlari tuzishda mutaxassis olimlar, fan o'qituvchisi, uslubchi, tilshunos, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash zarur.

Test rejasini ishlab chiqish

O'quv fan bo'yicha test topshiriqlari tuzishni uning rejasini ishlab chiqishdan boshlash tavsiya qilinadi. Avval fan bo'yicha test topshiriqlarining umumiy soni belgilanadi. Tegishli kafedra bu masala bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda mazkur o'quv fanini o'rganishga ajratilgan umumiy soatlar soni va test tuzishga oid talablar hisobga olinadi. Darsxona mashg'ulotlarining hajmi katta bo'lgan kurslar uchun o'quv rejasi bo'yicha mazkur o'quv fani soatlaridan ko'proq test topshiriqlari sonini tanlash maqsadga muvofiq. Bu mashg'ulotlarning har bir o'quv soatiga testda 1-2 ta savol qo'yishga imkon beradi. Masalan, hajmi 144 soatlik o'quv faniga bir variant uchun 150-160 topshiriqni ishlab chiqish mumkin. Agar o'quv fanining soati ko'p bo'lmasa, (mas. 36 soat) test topshiriqlar sonini belgilashda, uning ishonchliligi bilan bog'liq bo'lgan fikrlarga asosanib ish ko'riladi. Bunga asosan 50 topshiriqda ishonchlilik (bilimlarni o'ldash aniqligi) taxminan 0,7 bo'ladi, ishonchlilikni 0,9 ga etkazish uchun topshiriqlar soni 130 ta [4], bo'lishi kerak. Ishonchliligi 0,7 dan kam bo'lgan topshiriqlar yakuniy baholash uchun yaroqsiz hisoblanadi. SHuning uchun ham, yakuniy baholash uchun tuzilgan test topshiriqlarining soni eng kamida 50 ta bo'lishi qabul qilingan.

Test rejasi ishlab chiqilgandan keyin, talabalarining tegishli o'quv fanini o'rganish natijasida, ular oladigan bilimlarni egallashga va ko'nikma hosil qilishga oid talablar shakllantiriladi. Bu talablar odatda o'quv fani bo'yicha ishchi dasturning «fanning maqsad va vazifalari» bo'limida yoziladi. Test topshiriqlari talab etiladigan bilimlar, ko'nikmalarni egallash darajasini to'la-to'kis aniqlashi kerak. Buning uchun test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo'lgan muayyan masalalar ro'yxati (test spetsifikatsiyasi) ishlab chiqiladi. Masalan:

- A - ta'riflashni bilish;
- B - qonunlar, formulalar, tamoyillarni bilish;
- V - masalalar echishda qonunlar, formulalarni qo'llashni bilish;
- G - o'xshashlik va tafovutni topishni bilish;
- D - sxema va grafiklarni o'qishni bilish;
- E - apparatlar (texnik moslamalar)ning tuzilishi va ishlatish qoidalarini bilish;
- J - eHM qo'llab matematik modellar va eng maqbul hisob-kitob uslublaridan foydalanishni bilish;

Z - oldindan tanish bo'lgan sharoitda qaror qabul qila olish (bemorga tashhis qo'yish, mashinani texnik holati to'g'risida axborot berish, mavjud ma'lumotlar asosida boshqarishni bilish va h.k) va boshqalar.

O'z-o'zidan ravshanki, keltirilgan ro'yxat universal xarakterga ega emas, u har bir o'quv fanining o'ziga xosligi asosida tuziladi. Masalan: chet tillar bo'yicha jumla tuzish kabi elementlar; tarixdan muhim voqealar, atoqli arboblarning ismi-shariflari, jamiyat rivojlanishining izchilligi kabi elementlar ro'yxatda aks ettirilishi mumkin.

Har bir bilim va ko'nikmani tekshirishga test topshiriqlarining muayyan foizi ajratilishi zarur. Test rejasini ishlab chiqishda bu g'oyat muhim ishdir, test validligi, ya'ni uning o'quv dasturiga muvofiqligi ko'p jihatdan ana shunga bog'liq bo'ladi.

Bu masala bo'yicha test ishlab chiquvchilar o'quv fanining ishchi o'quv dasturini tahlil qilish asosida muayyan bir fikrga kelishlari mumkin. So'ngra qabul qilingan topshiriqlar sonini o'quv fani bo'limlari va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlanadi. 8-9 jadvallarda 120 ta topshiriqni o'quv fanining 4 ta bo'limi va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlash misol keltirilgan. Bunday rejasiz tuzilgan test tasodifiy materialga oid tuzilgan bo'lib, uning sifatsiz chiqishi tabiiydir.

Fan bo'limlari bo'yicha

t e s t r e j a s i .

5 – **jadval**

O'quv fani bo'limlari	Topshiriqlar soni	Umumiy songa nisbatan foiz hisobida
1.	12	10
2.	36	30
3.	48	40
4.	24	20

J a m i :	120	100%
-----------	-----	------

O'quv materialini o'zlashtirish darajalari bo'yicha
t e s t r e j a s i.

Bo'limlar va tekshirish bo'yicha topshiriqlar foizi.	Bo'limlar, o'zlashtirish darajalari bo'yicha topshiriqlar sonining taqsimlanishi.												B aho-lash uchun jami to pshiriqla r soni.			
	1- 10%			2- 30%			3- 40%			4- 20%						
	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3				
A-5%																6
B-15%																18
V-30%																36
G-10%																12
D-5%																6
E-15%																18
J-10%																12
Z-10%																12
Jami	12			36			48			24				12		
													0			

Bunday rejani ishlab chiqish test validligiga, uning o'quv dasturi mazmuniga muvofiqligi va talabalar olgan bilim, ko'nikma va malakalarining puxta bo'lishini kafolatlaydi. Testning umumiy rejasi ishlab chiqilgandan so'ng, topshiriqlarni tanlash va tuzish - eng mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. YUqorida aytilganidek, bu vazifa, odatda, kurs bo'yicha bir necha marta dars bergan va test bo'yicha talabalar bilimini sinab ko'rgan eng tajribalar o'qituvchilar ishtirokida amalga oshiriladi.

Jadvaldagi α_1 , α_2 , α_3 - o'zlashtirish darajalari (bilish, reproduktiv, samaradorlik). Bu misolda o'zlashtirishning eng yuqori darajasi-ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlarni tuzish nazarda tutilmagan.

Ishlab chiqiladigan test topshiriqlari soni, rejalashtirilgan sondan taxminan ikki-uch marta ko'proq bo'lishi kerak. Bu, bir xil o'quv fani bo'yicha testlarning bir necha turli variantlarini yaratish uchun zarur bo'ladi. Tajriba ko'rsatishicha, topshiriqlarning taxminan yarmidan ko'prog'i birinchi sinovdan keyin, boshqalari esa keyingi chuqur tahlil jarayonida yaroqsiz deb topilishi mumkin [1].

Test tuzishdagi eng xarakterli xatolarning tahlili

O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurtida (1995y.) tuzilgan dastlabki 369 ta test topshiriqlari professor Farberman B. L. rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan ekspertiza qilindi [2]. Bu test tuzuvchilarning eng xarakterli quyidagi xatolarini tahlil qilish, umumlashtirish va darajalarga bo'lib chiqishga imkon beradi.

1. YOpiq test topshiriqlariga taklif qilinayotgan javoblar miqdorining kamligi (4-5 ta javob bo'lishi tavsiya etiladi). Ularning soni kamroq bo'lganda, to'g'ri javobni tasodifiy tanlash ehtimoli ancha oshadi.

2. Testda oddiy dalillar, voqealarning sanalari, atamalar, ism-shariflar, ya'ni faqat eslab qolishni talab etadigan topshiriqlarning ko'pligi. Bunday topshiriqlarni tuzish oson, biroq bu holda test faqat xotira bilan bog'liq bilimlarnigina nazorat qiladi, xolos. Tanqidiy baho berish, mustaqil fikrlash turli xil dalillarni umumlashtirish yoki o'rganilgan tamoyillarni yangi sharoitlarda qo'llanishga doir test topshiriqlarini tuzish qiyin, lekin ana shunday topshiriqlargina talaba bilimini to'laqon baholaydi. O'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan materialning o'zi ko'pincha ma'lum vaqt o'tgach, unutiladi, o'zlashtirilgan asosiy tamoyillar va ularni yangi sharoitlarda qo'llash esa, umuman, unutilmaydi yoki o'qish tugallangandan keyin xotirada uzoq vaqt saqlanib qolar ekan.

3. Test topshiriqlarining shu fan bo'yicha darslikka o'ta bog'liq bo'lib qolganligi. Test topshiriqlari talabani o'zlashtirib olishi shart bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarga muvofiq kelishi lozim. Test topshiriqlarini o'quv fanining bo'limlari yoki mavzulari o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlab, bu masalalarni test rejasini ishlab chiqish bosqichida hal qilish zarur. Test rejasini

tuzayotganda qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil o'rganish uchun tuziladigan test topshiriqlarini ham e'tiborga olish zarur.

4. Testda shu o'quv fani asosiy qoidalarini umumlashtiradigan majmualari xarakterdagi topshiriqlarning yo'qligi. Bu alohida vaziyatga oid masalalar: keltirilgan ma'lumotlar asosida texnik, boshqaruv va boshqa qarorlar qabul qilish, bemorga tashhis qo'yish uchun klinik ma'lumotlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday topshiriqlar miqdori talaba, albatta, to'g'ri qaror qabul qilishi lozim bo'lgan (oldindan tanish bo'lgan) vaziyatlar soni bilan belgilanishi mumkin.

5. Taklif qilinadigan javoblarning kattaligi (beso'naqayligi). Test topshiriqlarida javoblarning ko'p satrli bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, ularni anglab olish qiyin bo'ladi va talaba beshinchi javobni o'qib bo'lguncha, birinchi javob mazmunini unutib qo'yadi. Murakkab topshiriqni bir necha oddiyliklarga bo'lib test tuzilishi zarur. Ko'p sonli qoida va mulohazalarni bilishni hamma vaqt talab qilaverish to'g'ri emas, ba'zan tayanch so'zlarni ajratishning o'zi talabning katta hajmdagi o'quv materialini bilishi haqida ma'lumot berishi mumkin.

6. Test topshirig'i shartlarini (savollarini) ta'riflashdagi ko'p so'zlilik. Test topshiriqlaridagi oddiy va lo'nda qilib bayon qilingan fikr sinovdan o'tuvchining fikrlash va tafakkur jarayonini engillashtiradi. Bu holda u talab qilingan fikrni va o'zaro mantiqiy bog'lanishlarni tezroq topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. SHunday test topshiriqlari ham uchraydiki, ularga to'g'ri javob topish uchun unga bir qarashning o'zi kifoya qiladi. Masalan: biror topshiriq, testning boshqa qismida joylashgan topshiriqning javobi bo'lib qolgan. Aytaylik, bir topshiriqda Erning tortish kuchi qonunini ta'riflagan olimning familiyasini aytib berish talab qilinadi, ayni vaqtda boshqa topshiriq quyidagicha ifodalangan: «N'yutonning Erni tortish kuchi formulasi...».

8. Ta'riflashdan ikki xil ma'no chiqishi yoki uning aniqmasligi, topshiriqni noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Bu, o'z fikrini savol yoki test topshirig'ini tasdiqlovchi javob tariqasida aniq ifodalab beradigan bitta gap tuzish malakasining etarli emasligidan kelib chiqadi. YOzilgan matnni boshqa kishiga o'qitib ko'rish test ravonligini aniqlashning eng yaxshi yo'lidir. Topshiriq tuzuvchi talabalar fikriga berilib, ko'pincha u o'z ta'riflarining boshqacha mazmunini anglay olmaydi. SHuning uchun ham, test tuzuvchilar o'z tasavvurida test topshirig'ini bajarish jarayonidagi talaba tafakkuri modelini tasavvur etish qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir. Test topshirig'ining sifatiga bevosita ta'sir etmaydigan, lekin test tuzishda hisobga olinishi zarur bo'lgan quyidagi jihatlarni ham e'tiborga olish lozim.

Test faqat oson yoki faqat qiyin topshiriqlardan iborat bo'lish kerak emas, u deyarli hamma talabalar to'g'ri javob bera oladigan eng osonidan, to bitta-ikkita talaba to'g'ri javob bera olishi mumkin bo'lgan murakkab topshiriqlarni o'z ichiga olishi zarur. eng yaxshi biladigan talabalarni aniqlash uchun testga shunchalik qiyin bitta savol kiritish mumkinki, unga mingta talabadan taxminan bittasi to'g'ri javob bera olsin. Bordiyu, tahlil qilinayotgan savolga bironta ham talaba javob topa olmasa, bu savol zahiraga o'tkazib qo'yiladi.

Test topshiriqlari tuzishda o'qitish davrida keltirilgan misollardan foydalanish yoki yakunlovchi testga joriy baholashda ilgari foydalanilgan shakldagi topshiriqlarni kiritish ma'qul emas. CHunki, bunday xollarda unumli fikrlashni tekshirish o'rniga amalda o'quv materialini o'zlashtirishning bir muncha past darajada, ya'ni xotira, eslab qolish qobiliyatigina sinaladi xolos.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, testlarning murakkablik darajasini faqat 10-25 foiz hollardagina to'g'ri aniqlash mumkin ekan. SHu sababli testni talabalar guruhlarida tekshirish yo'li bilan tajriba (empirik) usulida sinash lozim. Buning uchun tuzilgan test topshiriqlari birinchi marta ularning sifatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Uning natijasi jadval yoki grafik ko'rinishda tasvirlanib, talabalarning ko'proq yoki ozroq qismi javob bergan test topshiriqlari aniqlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ular takomillashtiriladi.

Agar test topshiriqlaridagi to'g'ri javoblardan birotasini testdan o'tayotganlarning 5 foizidan kamrog'i tanlasa, bu javobni almashtirish kerak, chunki u talabani o'ziga jalb etmaydi. Agar testni umuman yaxshi bajargan talabalarning ko'pchiligi biror test topshirig'ini uddalay olmasa, bu holda topshiriq yo etarlicha o'rganilmagan materialga tegishli, yoki u shakli - mazmuni bo'yicha yaxshi tuzilmagan. Test tuzuvchilarining eng ko'p uchraydigan xatolarini tahlil qilish, ularning sifatini, ishonchlilik va validlik jihatdan tekshirishni o'z ichiga oladi. SHunga qaramay, zamonaviy testshunoslik ixtiyorida test topshiriqlari sifatining aniq miqdorini ta'riflash imkoniyatini beradigan uslublar mavjud. CHunonchi, Georg Rash statistik ma'lumotlar bo'yicha sinovdan o'tayotganlar guruhida qo'llanadigan test topshirig'i uchun xarakteristik egri chiziq tuzish uslubini taklif qildi. Bu uslub bilimlarning bitta

elementini nazorat qilish uchun tuzilgan bir necha test topshiriqlar variantlarini o'zaro taqqoslab ko'rish imkoniyatini beradi. Testning axborot uzatish funksiyasini hisoblab chiqish uchun matematik apparat yordamida topshiriqlarining bir necha variantlaridan, axborotni ko'p saqlaydigan turini tanlab olish ham mumkin.

Yuqoridagi ikki mavzuda testshunoslik to'g'risidagi axborotlar, o'quv qo'llanmaning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda, eng ixcham va umumiy tarzda bayon qilindi. Test topshiriqlarini sifatli tuzish yanada mukammalroq ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. Buning uchun mavzuga oid ko'rsatilgan adabiyotlarga murojaat qilish zarur.

XULOSA

Interfaol ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik, aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy bog'liq. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

«Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir» degan shior kun tartibiga o'rinli kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F. Disterning fikri ham tasdiqlaydi:

«Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosini kun tartibiga quygan bugungi kunda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o'ringa chiqdi.

Kadrlar tayyorlashning muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

xalq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay olishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

O'rta umumiy ta'limi maktab o'quvchilar jamoalarini, tashkil qilishda pedagogdan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

6. Pedagog jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik o'quvchilarni to'g'ri qo'ya bilish, shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

7. o'quvchilar jamoasidagi yetakchi kuch-tayanch o'zagini tanlash.

8. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.

9. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarning dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.

10. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Har bir pedagog pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. // Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. SHarq. 1997.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. SHarq. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T.O'zbekiston. 1998.
5. Karimov I.A O'zbekiston XX asrga intilmoqda. T.O'zbekiston. 1999.
6. Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz – Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” nomli ma'ruzasi. 2011 yil 22 yanvar.
7. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar'.
8. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar'.
9. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahqam poydevoridir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkor va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, № 5, 1999.
11. Aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 22 avgust 361-sonli Qarori // Xalq so'zi, 1998 yil 25 avgust.
12. Karimov I. A. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. Toshkent: O'zbekiston, 1996, 30-b.,
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -315
14. Karimov. I.A O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.–T.; O'zbekiston, 1995.
15. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
16. Jumaev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / «Xalq ta'limi» jurnali, 2006, № 6, -17-20-betlar.
17. Pedagogika professional'nogo obrazovaniya. Pod red. V.A.Slastenina. _M . : Akademiya, 2004.
18. Pityukov V. Yu. Osnovy pedagogicheskoy texnologii. – M. : Gnom-Press, 1999.

19. Xasanboev J., Sariboev X., Niyozov G., Xasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T: Fan, 2006.
20. Ermakov Yu.G. i dr. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov. M: Vqsshaya shkola, 1988.
21. Ryabchikov A.M. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov. M: Vqsshaya shkola, 1988.
22. Fizicheskaya geografiya mirovogo okeana. M: Izdatel'stvo Moskovskogo Universiteta, 1988.
23. Ryabchikov A.M. Dunyo qit'alari tabiiy geografiyasi, Toshkent, 1968.
24. Vlasova T.M. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov. Tom I-II, M: Prosveo'enie, 1976.
25. Vlasova T.M. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. I-II tom. Toshkent, 1985.
26. Leont'ev O.K. Fizicheskaya geografiya mirovogo okeana. M: 1982.
27. Entsiklopeditseskii slovar' geograficheskix terminov. M: 1968.
28. Vaxobov X. va boshqalar. Umumiy yyer bilimi T., 2006.
29. Bokov V.A., Selivyerstov Yu.P., Chyervanov I.G. Obshee zemlevedenie. S.Pb. 1999, 268 s.
30. Gyerenchuk K.I., Bokov V.A. Chyervanov I.G. Obshee zemlevedenie. M., Visshaya shkola, 1984, 256 s.
31. Mil'kov F.N. Obshee zemlevedenie. M., Visshaya shkola, 1990.
32. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. – T.; O'qituvchi, 1983.
33. Abullaev X.A. Biogeoximiya va tuproq muhofazasi asoslari. –T.: O'qituvchi, 1989.-127 b.
34. Ashurmetov O.A. va boshqalar. Ekologiya. –T.: Chinor ENK, 2008. -79 .
35. Axmadaliev Yu. va boshqalar. Yerdan foydalanishni ırganishda tarixiy geografik yondashuv O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy geografik siyosati: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. -Namangan, 2001. 112-113 b.
36. O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida MILLIY MA'RUZA. Toshkent, 2008.
37. Shubaev P.P. Umumiy yyer bilimi T., 1975.
38. Kalesnik S.V. Umumiy yyer bilimi qisqa kursi. T., O'quvpeddavnashr, 1959, 261 b.
39. X. Masudov va boshqalar. Umumiy yyer bilimidan laboratoriya mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi", 1986, 152
40. Qozoqov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar. Toshkent – 1993 yil.
41. O'zbekiston atrof muhit holatini ekologik ko'rsatkichlar asosida baholash ATLASI. –T.: Kartografiya, 2008.-63 b.
42. O'zbekiston atrof-muhitining holati va tabiiy resurslardan foydalanish: faktlar va raqamlar 2000-2004 statistik to'plam. Toshkent, 2006.
43. 6-sinf. Atlas. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. Toshkent 2008 yil.

Internet manbaalari

<http://www.ttesi.uz>

<http://www.bearingpoint.uz>

<http://www.tfi.uz>

<http://www.cer.uz>

<http://www.gov.uz>